

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIT TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

**Qo‘lyozma huquqida
UDK. _____**

MAMATMUSAYEVA IRODA SAIDVALI QIZI

**XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA MILLIY DASTURLARNI
(UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA) LOYIHALASH
TEXNOLOGIYASI**

**70110103-Ta'lim muassasalari boshqaruvi mutaxassisligi bo'yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: _____ p.f.n, dots. M.Q.Bozorova
Imzo

TERMIZ-2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI**

PEDAGOGIKA VA IJTIMOIV ISH KAFEDRASI

MAMATMUSAYEVA IRODA SAIDVALI QIZI

**XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA MILLIV DASTURLARNI
(UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA) LOYIHALASH
TEXNOLOGIYASI**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

“Himoyaga tavsiya etaman”

Ilmiy rahbar: _____ p.f.n, dots. M.Q.Bozorova

« _____ » _____ 20__ yil

“Himoyaga ruxsat berildi”

Kafedra mudiri: _____ p.f.n.M.Mirzayev

« _____ » _____ 20__ yil

(Titul varag'ining orqa tomoni)

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining
2023 yil 3-martdagi № 6-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy
ish kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universiteti rasmiy
veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manziling QR-kodi:

Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs
markazida tanishish mumkin (_____)raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ p.f.n, dots. M.Q.Bozorova

Kafedra mudiri: _____ p.f.n.M.Mirzayev

Magistratura bo'limi boshlig'i _____ **D.X.Abduraximov**

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. MILLIY TA'LIM DASTURLARINI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA LOYIHALASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI	
1.1-§. Umumta'lim maktablaridagi o'quv-dasturlarining mazmuni.....	9
1.2-§. Mamlakatimiz umumta'lim tizimida xorijiy tajribalarni o'rganish zaruriyati.....	22
1.3-§. Ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashning mavjud holati	31
I bob bo'yicha xulosalar.....	36
II-BOB. XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA MILLIY DASTURLARNI LOYIHALASHNING AMALIY TEXNOLOGIK TIZIMI	
2.1-§. Xorjiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalash mazmuni va mohiyati.....	38
2.2-§. Milliy ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashning metodok ta'minoti.....	51
2.3-§. Xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarni loyihalashning shakl, metod va vositalar.....	65
II bob bo'yicha xulosalar.....	72
III-BOB. XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA MILLIY DASTURLARNI LOYIHALASHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI	
3.1-§. Xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashga oid tajriba-sinov ishlarining mazmuni.....	75
3.2-§. Milliy ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashga doir tajriba-sinov ishlari samaradorligi.....	82
III bob bo'yicha xulosa.....	87
UMUMIY XULOSA.....	89
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	92

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi: Jahonda fan va texnologiyalar taraqqiyotining jadallashuvi, to‘rtinchi iqtisodiy inqilob, global chaqiriqlar, jumladan, raqamli iqtisodiyotga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda.

Mamlakatimizda ta‘lim amaliyotida sifat va samaradorlikni xalqaro dasturlar talablari asosida baholash metodologiyasi hamda natijalarining representativligini ilmiy-pedagogik muammo sifatida tadqiq etish an‘anasi kuchaymoqda. Xalqaro tadqiqotlarni turli mamlakatlar milliy ta‘lim tizimiga joriy etish, ta‘limga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni belgilash hamda ta‘lim sohasini isloh qilish strategiyasini aniqlash jarayonlarini ilmiy tahlil qilish dolzarblashmoqda

Milliy o‘quv dasturida O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish belgilab qo‘yilgan qolaversa ta‘lim sohasini rivojlantirishga doir ko‘plab qaror, farmon va me‘yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. O‘zbekistonda ta‘lim tizimini rivojlantirish uchun xalqaro tan olingan dasturlarni tizimga joriy qilish uchun ham bir qancha qarorlar qabul qilindi. Ta‘lim tizimiga jahonda tan olingan xalqaro tajribalarni jalb qilish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta‘lim sifatini yaxshilash va o‘quvchilarning zamonaviy bilim olishi uchun Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi ilg‘or xorijiy tajriba asosida “2022-2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur”¹ yaratildi. Milliy ta‘lim dasturida belgilab qo‘yilgan vazifalar asosida zamonaviy dizayn va mazmunga ega darsliklar mashq daftarlari, maxsus elektron tizimlar (S-testing, Onlinedu, Raqamli

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi 2022-2026-yillarda Maktabgacha va maktabta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida PF-134-sonli farmoni. [Lex.uz](http://lex.uz).

darsliklar), davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga xalqaro tan olingan ta'lim dasturlarini joriy qilish hamda xorijiy ekspertlarni o'quv dasturi, o'quv-metodik majmua va darsliklarni yaratish hamda yangilash uchun jalb qilish kabi vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Milliy o'quv dasturida O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish belgilab qo'yilgan qolaversa ta'lim sohasini rivojlantirishga doir ko'plab qaror, farmon va me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish uchun xalqaro tan olingan dasturlarni tizimga joriy qilish uchun ham bir qancha qarorlar qabul qilindi. Respublikamiz xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni o'tkazish orqali o'quvchilarning turli fanlardan savodxonlik arajasini baholashga yo'naltirilgan milliy tizimni yaratish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning araqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida", 2018-yil 8-dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xorijiy tajribalarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son "Uzluksiz

ma'naviy tarbiya kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi 2022-2026-yillarda Maktabgacha va maktabta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida PF-134-sonli farmonI hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning obyekti:xorijiy tajribalar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida milliy dasturlarni loyihalash jarayoni bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Surxondaryo viloyatining Termiz shahridagi 1-,8-,sonli hamda Angor tumanidagi 3-, sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilaridan iborat jami 185 nafar respondent jalb qilindi.

Tadqiqotning predmeti:xorijiy tajribalar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi milliy dasturlarni loyihalash mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi: umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi milliy ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalari amalga oshirish ko'zda tutiladi:

-xorijiy tajribalarning milliy ta'lim dasturlarimizni takomillashtirishning mavjud shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

-milliy ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashning didaktik imkoniyatlarini tahliliy o'rganish;

-milliy ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashda o'qituvchilar faoliyatini uslubiy ta'minlash yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

-xorijiy tajribalar asosida miliy ta'lim dasturlarini loyihalash texnologiyasining samaradorlik darajasini aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

-xorijiy tajribalarning milliy ta'lim dasturlarimizni takomillashtirishning huquqiy-me'yoriy, ilmiy-uslubiy imkoniyatlari tahliliy o'rganilib, maktab tajribasidagi holati aniqlashtirilgan;

-ta'lim jarayonida xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalashning didaktik imkoniyatlarini test, so'rov-anketa, dars tahlillari asosida takomillashtirildi;

-milliy ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalash yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;

-xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalash texnologiyasini ishlab chiqildi va uning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili): Mamlakatimizda ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalash yuzasidan B.M.Mirzaxmedov, M.X.Maxmudov, R.Safarova, M.Rixsiyeva, Q.T.Olimov, A.Xaitov, D.Shodiyev, N.I. Tayloqov, U.K.Musayevlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, ta'limni xorijiy tajribalar asosida didaktik loyihalash mazmuni tamoyillari va o'quv materialini xorijiy tajribalar asosida loyihalash muammosi M.Mahmudov, G.Ergasheva va X.Saidovalar tomonidan tadqiq qilingan. Shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etish, loyihalash va modellashtirish masalalari, mazkur sohadagi muammolarni bartaraf etish usul va yo'llari L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva, S.B.Qorayev, S.R.Abdalova, J.G'.Yo'ldoshev, S.Usmonov, O'.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva, S.T.Turgunov, D.M.Hakimovalar tomonidan tadqiq qilingan.

MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) mamlakatlari olimlaridan ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashning o'ziga xos xususiyatlari D.D.Zuyev, V.S.Syetlin, A.A.Tixonov, A.D.Ivannikovlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa, darsliklar va o'quv materiallarini xorijiy tajribalar asosida loyihalash, A.M.Soxor, M.N.Skatkin, V.V.Krayevskiy, I.Lerner, V.A.Adenin kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy olimlardan darsliklar va o'quv materiallarini loyihalashni takomillashtirish yuzasidan G.Beylinson A.Diario, P.Leon, N.Chomsky, J.Jarmul, Ch.Chanthala, M.Caplan kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borgan.

Bugungi kunda darsliklar va o'quv materiallarini loyihalashga oid nazariy va amaliy ahamiyatga ega tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalash alohida tadqiqod ob'yekti sifatida tadqiq etilmagan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tadqiqot ishini "Xorijiy tajribalar asosida (umumiy o'rta ta'lim muassasalarida) milliy dasturlarni loyihalash" mavzusi dolzarb pedagogik muammo sifatida tadqiq etishga asos bo'ldi.

Tadqiqotda qo'llaniladigan metodikaning tavsifi: Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan vazifalar yechimini topish uchun o'quv-metodik, ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, kompleks ravishda ma'yoriy-huquqiy hujjatlar, psixologik pedagogik va o'quv-metodik adabiyotlar tahlili; kuzatuv, pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish; so'rovnoma, test, suhbat, pedagogik eksperiment; tadqiqot natijalariga matematik-statistik ishlov berish kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashning jarayonini metodik tahlil etish asosida umumta'lim maktablaridagi o'quv-tarbiya ishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati milliy ta'lim dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalash didaktik imkoniyatlari magistrlik dissertatsiyasi asosida ilk bor ochib berilganligi, xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash yuzasidan metodik tavsiya ishlab chiqilganligi, umumta'lim maktablaridagi milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalash orqali ta'lim dasturilarining takomillashtirilganligi, xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashning metod, usul va vositalarni qo'llash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

-tadqiqot jarayonida olingan natijalar umumta'lim maktablaridagi milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalashga xizmat qiladi.

- ta'lim muassasalari amaliyotida milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalash yuzasidan pedagoglar uchun xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ish tuzilmasining tavsifi: Ushbu tadqiqot ishi kirish, 3 bob, 8 paragraf, har bir bob bo'yicha xulosa, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismdan iborat bo'lib, asosiy matn 88 sahifadan iborat.

I.BOB.MILLIY TA'LIM DASTURLARINI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA LOYIHALASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Umumta'lim maktablaridagi o'quv-dasturlarining mazmuni

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, jumladan, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Ta'lim sifatini amalga oshirish muammosi ta'lim muassasasining barcha turlari uchun asosiy vazifalardan biridir. "Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning eng muhim yo'nalishi bu tizimni ta'lim dasturlari modelini o'zgartirishdir"². Bugungi kunda davlatimizda o'quv jarayonida avtoritar yondashuvdan voz kechishga, ta'lim oluvchilarning tashabbuskorligini rag'batlantirishga qaratilgan, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'zaro hamkorlik o'rganish imkonini beruvchi, o'quvchining shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradigan milliy ta'lim tizimini zamon talablari asosida yangilash asosiy masalaga aylanmoqda. Bu harakatlar zamiri esa mustahkam, puxta o'ylangan milliy o'quv dasturlarini yaratish asosida amalga oshirilishi lozim.

Ta'lim ta'limi tizimidagi katta yangilanishlardan biri darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlarini zamon talablariga mos shaklda ishlab chiqishdir. Bu yo'nalishda bugungacha ham o'ziga yarasha qoidalar, standartlar bo'lgan va ular o'z vaqtida o'zini oqlagan. Bugun ilm-fan, texnika, texnologiya shiddat bilan rivojlanyapti, odamlarning ehtiyojlari va imkoniyatlari kengayapti, yangi fan tarmoqlari va innovatsion yondashuvlar o'rtaga chiqyapti. Bunday vaziyatlarda dunyodan ortda qolmaslik uchun ta'lim sohasida jiddiy va samarali o'zgarishlar qilish zarur. Bu harakat esa mustahkam, puxta o'ylangan dastur asosida amalga oshirilishi kerak. Ta'limni isloh qilish bo'yicha keng amaliy harakatlar 2017-yildan boshlandi. Umumiy o'rta ta'limda eski davlat ta'lim standartlari (DTS) o'rnini bosadigan va ta'limga o'zgarishlar kirita oladigan Milliy o'quv dasturi ishlab chiqilmoqda.

²2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 28.01.2022 -yildagi PF-60 son farmoni va uning 1-ilovasi // Elektron manba.

“O‘quv dasturi bu-ta’lim tizimidagi har bir o‘quv fanining mazmuni va o‘tilish tartibini, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim hamda ko‘nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat bo‘lib, o‘quv dasturi tegishli vazirliklar qoshidagi ilmiy metodik kengashlar tomonidan tasdiqlanadi”³. Har bir o‘quv dasturi uqtirish xati, o‘quv fani mazmunining qisqa bayoni, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar singari 3 qismdan iborat. O‘quv fanining maqsad va vazifalarini belgilab berish o‘quv dasturining muhim belgisidir. Chunki ayni shu narsa yaratiladigan o‘quv darsligi muallifiga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o‘qituvchiga esa pedagogik mo‘ljalni to‘g‘ri belgilash imkonini beradi. “O‘quv dasturi bu xujjat hisoblanib, ta’lim mazmunini va uni o‘quvchi (talaba) lar tomonidan o‘zlashtirishni tashkil etish usullarini uzida aks ettiradi”⁴. O‘quv dasturlarida umuminsoniy tajriba, shuningdek, ta’lim va tarbiya tajribasi ma’lum ko‘rinishda (yoki shaklda) shakllanadi.

Milliy ta’lim dasturlarida o‘quv materialining tushunarli tarzda berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv materialining tushunarli bo‘lishi uchun u ma’lum murakkablik darajasida bayon etiladi. Shu boisdan didaktikada “oddiydan murakkablikka” qoidasi mavjud. Bu qoidaga ta’lim mazmunini izchil va ketma-ket yoritishda rioya qilinadi. Dastur o‘qitish jarayonida o‘zlashtirish kerak bo‘lgan savollar ro‘yxatidan iborat bo‘lganligi uchun bilimlar mazmunini to‘liq yoritib berolmaydi. Shuningdek, ular xajmini va chuqurligini, ko‘nikma va malakalar mazmunini va harakterini ham aniqlamaydi. Dastur o‘qitish darajasi ilmiy-nazariy va siyosiy jihatdan qanday bo‘lishi kerakligini o‘quvchilarda dunyoqarashning qaysi qirralarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatsa, darslik bu muammolarni aniq tushuntirib beradi.

Ta’lim amaliyotida o‘quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo‘l bilan tuzilgan o‘quv dasturida ta’limning mazmuni yoki o‘quv materiallari o‘qitishning keyingi bosqichida

³ Ta’limga qiziqishni shakllantirishning dolzarb masalalari/ Ed. G.I. Shukina. M.: Ma’rifat, 2019. - 176 b.

⁴ Babanskiy, Yu.K. Zamonaviy umumta’lim maktabida o‘qitish metodikasi /Yu.K. Babanskiy. M.: Ma’rifat, 1985. - 208 b.

yuksakroq darajada takrorlanishi ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi o'quv dasturilarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinfdan keyingi bosqichlarida qo'llaniladigan bu usulda ortiqcha takrorlarga yo'l qo'yilmaydi, har bir mavzuning o'z o'rnida o'tilishi ko'zda tutiladi. Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, tizim orqali davlat tomonidan maqsadli ravishda amalga oshiriladigan innovatsion jarayonlarni qo'llash, ta'limning barcha bosqichlarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish va boshqaruv faoliyatidagi o'zgarishlarni talab qiladi. Ta'lim dasturining tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlar bilan belgilanadi:

- 1) professor-o'qituvchilar jamoasi faoliyati samaradorligini tahlil qilish;
- 2) ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlari, uning maqsad va vazifalari;
- 3) maktab o'quv dasturining asoslari;
- 4) o'quv rejasining o'zgaruvchan (maktab) tarkibiy qismida ularni ta'minlaydigan o'quv fanlari va dasturlari ro'yxati;
- 5) qo'shimcha ta'lim dasturlari to'plami;
- 6) o'quv dasturining o'zgaruvchan qismini o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlash;
- 7) o'quv jarayonini (ta'lim va tarbiya) tashkil etish xususiyatlarining tavsifi;
- 8) pedagogik monitoring orqali dasturlarning bajarilishini boshqarish.

Rivojlanayotgan maktabga o'qitishning yangi texnologiyalarini ijodiy tadbiq etuvchi, o'z kasbiy faoliyatida izchil yuqori natijalarga erishadigan bilimli mutaxassislar kerak.

Ta'lim mazmuni deganda inson o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar xajmi va harakter tushuniladi"⁵. Biroq bilim va ko'nikmalar ta'lim mazmunini mukammal ifodalay olmaydi. Ta'lim mazmunini loyihalashga kiritilgan pedagogik tizimning 1-elementi – maqsad bilan uzaro

⁵ Milliy o'quv dasturi loyihalari, loyiha bo'yicha taqdimotlar. 2025 yilda barcha maktablar to'liq milliy o'quv dasturiga o'tadi. 6 - // Elektron manba.

farqlanadigan tomonlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Chunki har ikkalasida ham UE mavjud. Aslida ham shunday bo'lishi kerak, biroq pedagogik tizimning maqsadini belgilashda, yuqorida ta'kidlanganidek, uni o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan ro'yxati keltiriladi xolos va ular ta'lim maqsadini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Mamlakatimiz maktab ta'limi tizimidagi katta yangilanishlardan biri darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlarni zamon talablariga mos shaklda ishlab chiqishdir. Bu yo'nalishda bugungacha ham o'ziga yarasha qoidalar, standartlar bo'lgan va ular o'z vaqtida o'zini oqlagan. Bunday vaziyatda dunyodan ortda qolmaslik uchun ta'lim sohasida jiddiy va samarali o'zgarishlar qilish zarur. Bu harakat esa mustahkam, puxta o'ylangan dastur asosida amalga oshirilishi kerak. Umumiy o'rta ta'limda eski davlat ta'lim standartlari (DTS) o'rnini bosadigan va ta'limga o'zgarishlar kiritiladigan Milliy o'quv dasturi ishlab chiqilmoqda. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi (MO'D) o'quv-me'yoriy hujjat bo'lib, u o'quv reja va fanlarning o'quv dasturlari, o'qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqishga asos bo'ladi. U bo'yicha yaratilayotgan yangi darsliklar, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, mashq daftarlari, o'quv-metodik materiallar ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi. U pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarini qo'llab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradigan dasturdir.

“Milliy o'quv dasturi-har bir sinf bosqichi yakunida o'quvchilardan kutiladigan natijalarni hamda bir sinfdan keyingi sinfga o'tishni va o'quvchi qanday natijalarni qo'lga kiritishi kerakligi va baholash jarayonini tushuntirishda yo'nalish beruvchi hujjatdir”⁶. “Milliy o'quv dasturi-o'quv-me'yoriy hujjat bo'lib, u o'quv reja va fanlarning o'quv dasturlari, o'qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqishga asos bo'ladi”⁷. U bo'yicha yaratilayotgan yangi darsliklar, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, mashq daftarlari, o'quv-metodik materiallar ta'limni

⁶ Rustam o'g A. T. et al. Milliy o'quv dasturining hayotimizdagi o'rni //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 88-93.

⁷ Rustam o'g A. T. et al. Xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning bilimni baholash metodologiyasi //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 94-100.

rivojlantirishga xizmat qiladi. U pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarini qo'llab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradigan dasturdir. Vazirlar mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limini davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-qarori orqali O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini qayta shakllantirish va Maktabgacha va maktabta'limini jahon andozalari darajasida tashkil etishga qaratilgan vazifalar keltirilgan. 2022-yil 11-mayda "2022-2026-yillarda Maktabgacha va maktabta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" prezident farmoni bilan tasdiqlandi.

Milliy o'quv dasturida quyidagilar yetakchi o'rin tutadi:

- izchillik, uzviylik, uzluksizlik;

-jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, fan, texnika va ilg'or texnologiyalar rivojining istiqbollari, xalqaro ta'lim standartlari darajasining mavjud holatini inobatga olish asosida, ta'lim mazmunini jahon ta'lim standartlariga moslashtirish;

- ishlab chiqarish, fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlash.

Ta'lim dasturi maktablar - bu ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik jarayonni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi ta'lim muassasasining me'yoriy-ma'muriy hujjati dasturda muayyan sharoitlarni hisobga olgan holda ta'lim muassasasi o'quv jarayonini tashkil etishning o'ziga xos modelini qanday yaratishi ko'rsatilishi kerak. Shu sababli, ta'lim dasturi ma'lum bir ta'lim muassasasining pedagogik jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojlari va imkoniyatlarini aks ettiradigan mutlaqo individual bo'lishi kerak.

Davlat ta'lim standarti umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim uchun alohida-alohida ishlab chiqarildi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligi saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab berdi. O'z navbatida kasb-hunar ta'limi, davlat ta'lim standarti o'quvchilar kasb-hunar tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yadigan (oliy ta'lim DTS talablar mutaxassislik tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan) majburiy minimal darajani belgilaydi. DTS (davlat ta'lim standarti) ta'lim

mazmuni shakllari vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida, mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli ta'lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar o'quv rejasi va boshqa mayoriy hujjatlarni yaratish uchu nasos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'limning DTS o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud ta'lim muassasalari manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng muhimi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standarti:

“1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;

2) o'quv fani bo'yicha yakuniy ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablarni belgilaydi”⁸. Jahon amaliyoti tajribasi asosida yaratilgan ta'lim standartlari har bir fan bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarning minimal darajasini belgilashga imkon berdi. O'quv fanining mazmuni, tayanch (invariant) darajasini tasvirlash. Ta'limning majburiy natijalarini ifodalash, ya'ni o'quvchilarning Bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiluvchi talablar, bu ularning majburiy tayyorgarliklari darajasining “o'lchamidir”, ya'ni, tekshirish ishlari, testlar va alohida topshiriqlarni bajarishlariga qarab o'quvchilar tomonidan talablarning majburiy darajasiga erishilganligi haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi. DTSni, uning talablarini bajarish

⁸ Axmadaliyev Murodjon Ulug'bek o'g'lining “Ta'lim sifatini oshirishda xalqaro baholash dasturlarni hamda raqamli texnologiyalarni o'rni” nomli maqolasi. И73 «Интернаука»: научный журнал–№ 2(225). Часть.3. Москва, Изд. «Интернаука», 2022. – 96 с. 76-77.

O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan mulkchilik shakli va idoraviy bo‘ysunishdan qat’i nazar barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

Umumiy o‘rta ta’limning DTS quyidagi tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqiladi:

- “DTS ni davlat va jamiyat talablari va shaxs ehtiyojiga mosligi;
- o‘quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan-texnika rivojlanishi bilan bog‘liqligi;

- umumiy o‘rta (kasb-hunar va oliy) ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi;

- umumiy o‘rta (kasb-hunar va oliy) ta’lim mazmunining insonparvarligi;

- ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlardagi birligi va yaxlitligi;

- umumiy o‘rta (kasb-hunar va oliy) ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya (ilg‘or) texnologiya yutuqlariga tayanish;

- pedagogik tafakkurda qaror topgan an’anaviy qarashlar bilan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;

- ilg‘or demokratik xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida meyorlarni belgilash tajribalarida milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish”⁹.

DTS ning tarkibiy qismi sifatida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun tayanch o‘quv rejasi ishlab chiqiladi. Tayanch o‘quv reja ta’lim sohalarini meyorlash hamda ta’lim muassasalarini moliyaviy ta’minotini belgilashga asos bo‘luvchi davlat hujjati sanaladi. Tayanch o‘quv rejasi o‘quv predmetlari bo‘yicha beriladigan ta’lim mazmunini o‘quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o‘quv soatlarining manimum hajmidagi miqdorini belgilaydi. Mazkur hujjat muayyan sinfda ma’lum o‘quv predmeti bo‘yicha davlat ta’lim standartlariga muvofiq beriladigan ta’lim mazmunini aniqlashga asos bo‘ladi.

O‘quv rejaları quyidagilardan iborat: tayanch, namunaviy va ishchi o‘quv rejasi. Tayanch o‘quv rejasi davlat ta’lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy meyoriy hujjat bo‘lib, u namunaviy va amaliy o‘quv rejalarini ishlab chiqish

⁹ Umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta’lim muhiti. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020.2-4-b

uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standarti tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Namunaviy o'quv reja tayanch o'quv rejasi asosida tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Bu reja uzoq muddatga mo'ljallab tuziladi va uning asosida mavjud sharoitlarni hisobga olib ishchi o'quv rejalari ishlab chiqiladi.

O'quv dasturi-muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish daraja-sini yorituvchi meyoriy hujjat. O'quv dasturlari namunaviy, ishchi va mualliflik bo'lishi mumkin. Namunaviy o'quv dasturi u yoki bu ta'lim sohasiga nisbatan davlat ta'lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi.

O'quv dasturlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- "ushbu fanni o'rganish maqsadlari, o'quvchilarning bilim va malakalariga asosiy talablar, o'qitish tavsiya etiladigan shakl va metodlari haqidagi tushuntirish xati;

-o'rganilayotgan materialning tematik mazmuni;

- kursning alohida savollarini o'rganishga o'qituvchi sarflaydigan taxminiy soatlari hajmi;

-dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy savollari ro'yxati;

- fanlararo va kurslararo bog'liqlikni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar;

-o'quv uskunalari va ko'rgazmali qo'llanmalar ro'yxati;

-tavsiya etiladigan adabiyotlar"¹⁰.

O'quv dasturi ham xuddi o'quv rejasi muhim davlat hujjati bo'lib, unda muayyan o'quv predmetifanning mazmuni ochib beriladi va o'quv yili davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi. O'quv dasturlari tegishli ta'lim (umumiy o'rta, kasb-hunar yoki oliy ta'lim) turidagi barcha ta'lim muassasalari uchun yagona, uning talablari to'la

¹⁰ Ina.V.S. Mullis va Michael O. Martin. Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) "TIMSS 2019 baholash qamrov doirasi". Toshkent 2021. 68 b.

ravishda bajarilishi majburiydir. Dastur tushuntirish xati, bo‘lim va mavzular bo‘yicha ajratilgan soatlar hajmi, dastur materiali mazmuni hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘ladi. Tushuntirish xatida o‘quv predmetining ahamiyati, uning fanlar tizimida tutgan o‘rni, ular o‘rtasidagi aloqadorlik, materialni o‘rganish jarayonida hal etilishi lozim ayrim bo‘lim va mavzularni o‘rganish xususiyatlari ko‘rsatiladi. O‘qitish (ta‘lim) metodlari va vositalarini qo‘llashga doir tavsiyalar beriladi. Soatlar hisobini asosli o‘rinlarda o‘zgartirilishiga yo‘l quyiladi. Dastur materiali bo‘limlar va mavzular bo‘yicha taqsimlangan bo‘lib, har bir mavzuni o‘rganish uchun o‘zlashtirishi majburiy bo‘lgan tushunchalar tizimini, shuningdek, ko‘nikma va malakalarning aniq ko‘rsatkichi beriladi, nihoyat, o‘quvchilarga qo‘yiladigan yakuniy talablar bayon etiladi. Dasturdagi material ta‘lim va tarbiya maqsadlari, didaktik tamoyillar uzviylik va izchillikka muvofiq ravishda tanlanadi va taqsimlanadi.

O‘quv dasturlari quyidagi tamoyillar asosida tuziladi:

- “dastur mazmunining ilmiy xususiyatga egaligi;
- dastur mazmunining ijtimoiy-g‘oyaviy xususiyatga egaligi;
- nazariy g‘oyalarning amaliyot bilan birligi;
- dastur mazmunining ijobiy-tarixiy xususiyatga egaligi va aniq bir g‘oyaga asoslanganligi;
- dastur mazmunining muayyan tizimga ega bo‘lishi;
- o‘quv predmetlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, bog‘lanishning mavjudligi;
- dasturni tayyorlashda o‘quvchilarning psixologik va ruhiy xususiyatlarini inobatga olish”¹¹.

Mualliflik o‘quv dasturlari davlat standarti talablarini hisobga olgan holda o‘quv fanini qurilishi boshqacha mantiqidan iborat bo‘lishi, u yoki bu nazariyalarni o‘rganishga mualliflik yondashuvi, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan mualliflik nuqtai nazarini aks ettirishi lozim. Mualliflik

¹¹ Ibadullayev Q.M. Ta‘lim jarayonida zamonaviy talablar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. Monografiya “Zebo print”, Tashkent 2023. 98-b

o‘quv dasturlari o‘quvchilarning erkin tanlovi bo‘yicha (majburiy va fakultativ) kurslar tashkil etishda keng foydalaniladi. Ta‘lim mazmuni va o‘quv dasturlari o‘quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari kiradi. Namunaviy o‘quv dasturlari Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo‘ladi. Namunaviy dastur asosida maktab, oliy ta‘lim muassasasi tomonidan ishchi o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Namunaviy dasturdan farqli ravishda ishchi dasturda regional komponenti ta‘riflanadi, o‘quv jarayoni-ni metodik, informatsion, texnik ta‘minlash imkoniyati, o‘quvchilarning tayyorgarligi darajasi hisobga olinadi.

Milliy o‘quv dasturi 6 ta qismdan iborat:

- “umumiy o‘rta ta‘limning malaka talablari;
- umumta‘lim fanlarining konsepsiyalari;
- umumiy o‘rta ta‘limning o‘quv rejasi;
- umumta‘lim fanlarining o‘quv dasturlari;
- umumta‘lim fanlarini o‘qitish metodologiyasi;
- baholash tizimi”¹².

1.2.Mamlakatimiz ta‘lim tizimida xorijiy tajribalarni o‘rganish zaruriyati

Jahonda fan va texnologiyalar taraqqiyotining jadallashuvi, raqamli iqtisodiyotga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu o‘z navbatida, globallashuv va integrallashuv sharoitida barcha sohalarda kuchli raqobat muhitini shakllantirib, natijada ta‘lim sohasiga nisbatan yangi talablarni qo‘ymoqda.

Birinchidan, ayni paytda, barcha mamlakatlar, birinchi navbatda jamiyat, munosabatlar tabiatini o‘zgartiruvchi innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda, ya‘ni:

¹²O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori. Toshkent sh., 2018-yil.Lex.uz

-“ta’lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlari yo‘nalishlarining ommalashishi, ishtirokchilar safi va tadqiqot yo‘nalishlarining kengayishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar;

- xalqaro baholash natijalariga ko‘ra davlatlar va sohalarning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi strategik dasturlarning qabul qilinishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar yuz bermoqda”¹³.

Ikkinchidan, ta’lim tizimida yuzaga kelgan muammolarning yechimini ta’lim sifatidagi yo‘qotishlarsiz, ilg‘or xorijiy tajribalarga asoslangan holda, yangi yondashuvlar asosida topish talab etilmoqda.

Ta'lim sohasidagi standartlar dunyo mamlakatlarida turli shakl va uslublarga ega. Fransiya, Yaponiya, Italiya, Xitoy, MDH mamlakatlarida ta'lim markazlashtirilgan va standartlar butun mamlakat uchun yagona o‘quv dasturlari va rejalar ko‘rinishida joriy etilgan. Ana shu mamlakatlarda ham so‘ngi 10-20 yil ichida ta'lim standartlari bo‘yicha yangiliklar, yangicha yondashuvlar yuzaga keldi. AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada kabi ta'lim markazlashmagan mamlakatlarda ham ta'lim standartlari va o‘quv dasturlari mavjud. Masalan, Shvetsiyada o‘quv dasturi fanlar bo‘yicha o‘quv soatlarini tartibga solinmaydi. U yerda standartlar 5- va 9-sinf bitiruvchilari fanlar bo‘yicha egallashi kerak bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni belgilab beradi. AQSHda Ta'lim departamenti (vazirligi) bo‘lsa-da, standartlarni ishlab chiqish haqidagi qarorlar shtatlar va ta'lim okruglari darajasida qabul qilinadi.

Ta'lim markazlashmagan mamlakatlarda standartlar dasturlarga emas, asosan o‘quv fanlariga nisbatan o‘rnatiladi. AQSHda ta'lim standartlari mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Mahalliy standartlar maktabdan keyingi ta'lim va ish beruvchi kutilmalariga mos kelishi, aniq, lo‘nda va izchil bo‘lishi, qat’iy mazmun va yuqori darajadagi ko‘nikmalarni aks ettirishi, davlat standartlarining kuchli va ahamiyatli jihatlarini qamrab olishi, o‘quvchilar global raqobatga tayyor bo‘lishi uchun baland ko‘rsatkichlarga ega boshqa

¹³ Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -Toshkent, 2020.8-b

mamlakatlarning tajribalaridan xabardor holda ishlab chiqilishi va faktik ma'lumotlarga asoslanishi kerak.

Mamlakatimiz Maktabgacha va maktab ta'lim tizimidagi katta yangilanishlardan biri darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlarni xorijiy tajribalar asosida zamon talablariga mos shaklda ishlab chiqishdir. Bu yo'nalishda bugungacha ham o'ziga yarasha qoidalar, standartlar bo'lgan va ular o'z vaqtida o'zini oqlagan. Masalan, shu paytgacha umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari bu borada asosiy yo'l ko'rsatkich vazifasini o'tagan. Lekin bugun ilmfan, texnika, texnologiya shiddat bilan rivojlanyapti, odamlarning ehtiyojlari va imkoniyatlari kengayyapti, yangi fan tarmoqlari, innovatsion yondashuvlar o'rta chiqyapti va yangidan yangi kasblar payda bo'layapdi. Bular rabotatexnika, dasturlash kabi sohalarni misol keltirishimiz mumkin. Bunday vaziyatda dunyodan ortda qolmaslik uchun ta'lim sohasida jiddiy va samarali o'zgarishlar qilish zarur. Bu harakat esa mustahkam, puxta o'ylangan dastur asosida amalga oshirilishi kerak.

Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida dasturiy nutqida ta'lim sohasidagi qator kamchilik va muammolarga e'tibor qaratdi. Jumladan, maktablar xususida to'xtalib, ularda bugun aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi murakkab tuzilgani, nazariy bilimlar amaliyot bilan bog'lanmagani, o'quv dasturlarida uzviylik yo'qligi, darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz ekani haqli e'tirozlarga sabab bo'layotgani, amaldagi davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlarida o'quvchilarni ta'limning navbatdagi bosqichiga tayyorlash, erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo'naltirish masalasi e'tibordan chetda qolayotganini tanqid qildi. Bunday holatlarga barham berish uchun xorijiy ekspertlar va tajribali o'qituvchilarni keng jalb qilgan holda, umumiy ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasini ishlab chiqish va joriy o'quv yili davomida uni ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkazish lozimligi ta'kidlandi.

Mamlakatimiz umumta'lim tizimidagi katta yangilanishlardan biri darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlarni zamon talablariga mos shaklda ishlab chiqishdir.

Bu yo'nalishda bugungacha ham o'ziga yarasha qoidalar, standartlar bo'lgan va ular o'z vaqtida o'zini oqlagan. Masalan, shu paytgacha umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari bu borada asosiy yo'lko'rsatkich vazifasini o'tagan. Lekin bugun ilm-fan, texnika, texnologoya shiddat bilan rivojlanyapti, odamlarning ehtiyojlari va imkoniyatlari kengayyapti, yangi fan tarmoqlari va innovatsion yondashuvlar o'rta chiqyapti. Bunday vaziyatda dunyodan ortda qolmaslik uchun ta'lim sohasida jiddiy sa samarali o'zgarishlar qilish zarur. Bu harakat esa mustahkam, puxta o'ylangan dastur asosida amalga oshirilishi kerak.

Ta'lim markazlashmagan mamlakatlarda standartlar dasturlarga emas, asosan o'quv fanlariga nisbatan o'rnatiladi. AQSHda ta'lim standartlari mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Mahalliy standartlar maktabdan keyingi ta'lim va ish beruvchi kutilmalariga mos kelishi, aniq, lo'nda va izchil bo'lishi, qat'iy mazmun va yuqori darajadagi ko'nikmalarni aks ettirishi, davlat standartlarining kuchli va ahamiyatli jihatlari qamrab olishi, o'quvchilar global raqobatga tayyor bo'lishi uchun baland ko'rsatkichlarga ega boshqa mamlakatlarning tajribalaridan xabardor holda ishlab chiqilishi va faktik ma'lumotlarga asoslanishi kerak.

Mamlakatimiz ta'limi tizimidagi katta yangilanishlardan biri darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlarni zamon talablariga mos shaklda ishlab chiqishdir. Bu yo'nalishda bugungacha ham o'ziga yarasha qoidalar, standartlar bo'lgan va ular o'z vaqtida o'zini oqlagan. Masalan, shu paytgacha umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari bu borada asosiy yo'lko'rsatkich vazifasini o'tagan. Lekin bugun ilmfan, texnika, texnologoya shiddat bilan rivojlanyapti, odamlarning ehtiyojlari va imkoniyatlari kengayyapti, yangi fan tarmoqlari va innovatsion yondashuvlar o'rta chiqyapti. Bunday vaziyatda dunyodan ortda qolmaslik uchun ta'lim sohasida jiddiy sa samarali o'zgarishlar qilish zarur. Bu harakat esa mustahkam, puxta o'ylangan dastur asosida amalga oshirilishi kerak. O'quvchilarni PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro dasturlari imtihonlariga tayyorlash, tadqiqot natijalariga ko'ra zarur xulosalar chiqarish, ta'lim mazmuni va jarayoniga kerakli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu bois Milliy o'quv

dasturi asosida yangilanayotgan darsliklarga xalqaro baholash dasturlarining baholash mezonlari va mexanizmlariga javob beradigan, o'quvchilarni ana shu dasturlarning imtihonlariga tayyorlashga xizmat qiladigan materiallar ham kiritilmoqda. Masalan, "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidan o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan, PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlari talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlar joy olgan. Bunday topshiriqlar vositasida o'quvchida matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish ma'lakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. Matematika fani bo'yicha ham tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda yangiliklar kiritilyapti. Jumladan matematika fanini o'qitishga xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash me'zonlari va mexanizmlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda joriy etilmoqda." Milliy o'quv dasturi amaldagi davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, keng jamoatchilikning darsliklarning mazmuniga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, ta'limning keyingi bosqichi hamda zamonaviy mehnat bozorining real talablari asosida, xorijiy davlatlarning ta'lim sohasida erishgan natijalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilmoqda"¹⁴.

Bugungi kunda milliy o'quv dasturida ko'plab yangilik va o'zgarishlar joriy etilmoqda. Xususan, oldingi o'quv dasturlari mazmuni asosan foiz nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan edi. Endi o'quv mazmunining yarmi nazariya, yarmi amaliyotdan iborat bo'ladi va asosiy urg'u o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga beriladi. Ilgari o'quv dasturlarida baholash faqat eslab qolingan bilimlar hajmini aniqlagan.

Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi. Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilar qiziqishiga ko'ra fanlarni tanlab o'qish imkonini beruvchi variativ o'quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni ham yaratiladi. Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Bunda

¹⁴ Ibadullayev Q.M. Ta'lim jarayonida zamonaviy talablar asosida o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. Monografiya "Zebo print", Tashkent 2023. 98-b

asosiy e'tibor mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, ijodkorlik, tizimli va mantiqiy fikrlash kabi XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Bugungi kun o'quvchisi internetga oshno, zamonaviy texnika va texnologiyadan to'laqonli foydalana oladi. Demak, uni darsga, kitobga, bilimga qiziqtirish, e'tiborini egallash uchun zamonaviy yondashuv talab etiladi. Darsliklar bilan birga multimedia ilovalari va boshqa raqamli mahsulotlar ham ishlab chiqilayotgani bu yo'ldagi muhim qadamdir. Yangilanayotgan darsliklar va boshqa o'quv materiallari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga, ularda tanqidiy va ijodiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yoshlar esa mamlakatning ertangi istiqboli va taraqqiyotining hal qiluvchi kuchidir.

Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshga mengzaladi. Naqsh mahorat bilan ishlanishi yoki, aksincha, bo'lishi mumkin. Shu bois oilada farzand dunyoga kelishi hamonoq uning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Dastlab ota-ona, mahalla-ko'y, maktabga chiqqach esa o'qituvchilar zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklanadi. Mamlakat kelajagining bunyodkori sanalmish yoshlarning ta'lim olishida darsliklarning xizmati beqiyos. O'quvchilarning risoladagidek bilim olishi, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, bilim samaradorligini oshirishda maktab darsliklari asosiy vositalardan biridir. O'quvchi darslikdan bilim oladi, tajriba to'playdi va uni o'z hayotida qo'llashni o'rganadi. Shunday ekan, darsliklarning mukammalligi har makon va zamonda ham muhim ahamiyat kasb etadi. E'tiborsizlik tufayli unda yo'l qo'yilgan birgina xato ulg'ayib kelayotgan o'quvchi hayotini tamomila teskakri tomonga burib yuborishi hech gap emas. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida o'tkazilgan muhim islohotlar, xususan, bu maktabgacha ta'limni uzluksiz ta'limning birlamchi bo'g'iniga aylantirilgani va bolalarga ta'lim berishni bog'cha yoshidan boshlab yo'lga qo'yilgani, albatta, o'quv dasturlarini yana qayta ko'rib chiqishni va tubdan yangilashni taqozo etadi. Ta'limni bolalarga kichik yoshidan boshlash juda katta samara beradi va buni buyuk ajdodlarimiz misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu nihoyatda to'g'ri qaror tufayli bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida

bolalarga tillarni ilk bosqichdan o‘qitish boshlab yuborildi, rus guruhlarida o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha maxsus “Ilk qadam” dasturi ham tuzildi. “Uzviylik va uzluksizlik talablariga ko‘ra ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini 1-sinfdan boshlab o‘qitilishini yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Biroq bugungi kunda chet tillarini o‘rgatish 1-sinfdan boshlangani holda, respublikamizning davlat tilini 2-sinfdan boshlashning o‘zi jiddiy xato bo‘lsa, ikkinchi tomondan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘zbek tili maxsus dastur asosida o‘rgatilsa-da, o‘zbek tilini o‘qitishni 2-sinfdan boshlash uzluksizlik va uzviylik tamoyillariga mutlaqo ziddir”¹⁵.

Milliy o‘quv dasturi, avvalo, ushbu islohotni amalga oshirishi kerak. Bu o‘rinda shuni ham qayd etib o‘tish kerakki, maktab ta’limida chet tillarini o‘qitish 1-sinfdan, ammo yozish amali esa 2-sinfdan boshlanadi. Natijada 2-sinfdan lotin yozuvining 2 xil varianti (lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va ingliz tili alifbosi) o‘rgatiladi. Milliy o‘quv dasturida e‘tibor qaratilishi kerak bo‘lgan ikkinchi asosiy masala, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili fani mamlakatimizda yashovchi turli millatlar vakillariga xorijiy til sifatida emas, til muhitida o‘qitiladi. O‘quvchilarning ko‘pchiligi turkiyzabon, ko‘pchiligi o‘zbek. Shu jihatdan dastur tuzuvchilari tanlagan yondashuv-o‘zbek tilini xorijiy til sifatida chet tili kabi o‘qitish ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun aslo mos emas. Dastur o‘quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilishi kerak va beriladigan fanga oid ma’lumotlar takror va qaytariqlarsiz osondan qiyinga tomon uzviylik va uzluksizlikda o‘stirib borilishi kerak. Afsuski, tavsiya qilinayotgan milliy o‘quv dasturida uzviylik va uzluksizlikka mutlaqo e‘tibor qaratilmagan, unda o‘zbek tilida savodli gapirish va yozish malakasini shakllantirish uchun zarur bo‘ladigan vositalar o‘quvchilar yoshiga mos holda uzviylik va uzluksizlikda berilmaganligi oqibatida takror va qaytariqlar ko‘payib ketgan, ko‘plab kerakli ma’lumotlar tushib qolgan, dastur

¹⁵ Milliy o‘quv dasturi loyihalari, loyiha bo‘yicha taqdimotlar.– // Elektron manba. Respublika ta’lim markazi rasmiy telegram kanali: https://t.me/edurtm_uz_3-b

o'quvchi berilayotgan vositalarni tushunib qo'llashi va o'z xatosini o'zi tuzata olishiga yo'naltirilmagan. Aslida, hozirgi kunda bajarishimiz kerak bo'lgan asosiy ishimiz ta'lim metodini yangilash, o'zbek tilidan beriladigan nutqiy va lingvistik materiallarni bir-biriga singdirgan holda oson yo'l bilan o'rgatishning zamonaviy metodikasini ishlab chiqish edi.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishda ham nutqiy, ham grammatik materiallar uzviyligi ta'minlanishi shart. Bunda adabiy o'qish materiallarining amaliy ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, ular orqali o'quvchilar ham til vositalarining nutqda qo'llanishini o'rganadi, ham o'z lug'at boyligini oshirib boradi, ayni vaqtda o'zbek adabiyoti namunalari va taniqli namoyondalari bilan tanishib boradi. DTS talablarida ham o'zga tillar vakillarini o'zbek adabiyotining nodir namunalari bilan tanishtirib borish orqali ularda milliy qadriyatlarimizga hurmat hissini uyg'otish, ona tilimizga qiziqishini oshirib borish belgilab qo'yilgan.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda 80-90 foizga yaqin o'quvchilarning o'zbeklar ekanligi e'tiborga olinsa, bu farzandlarimizni milliy qadriyatlarimizni bilmay ulg'ayishlarining oldini olishga juda katta yordam beradi. Biroq Milliy o'quv dasturiga adabiy o'qish materiallari mutlaqo kiritilmagani o'quvchilarni o'zbek adabiy tili nodir namunalari bilan tizimli ravishda tanishtirilmasligiga va ushbu qadriyatlar singdirilmasligiga olib keladi. Aytilgan mulohazalar, o'zbek tili fanidan Milliy o'quv dasturi hali ancha ishlanishi, keng jamoatchilik tomonidan yanada ko'proq tahlil qilinishi, bildirilgan barcha talab va takliflar e'tiborga olingan holda pishiq-puxta tuzilishi zarurligini ko'rsatmoqda.

Milliy o'quv dasturini joriy qilish bo'yicha ishlarni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi amalga oshiradi. Maktabgacha va maktab ta'lim Vazirligining 2020-yil 31-martdagi „Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish to'g'risida"gi buyrug'i asosida xalqaro talablarga javob beruvchi umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish boshlangan.

Uning loyihasi yuqori salohiyatli milliy va xalqaro ekspertlar, UNICEF, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlarning maslahatchilari ishtirokida tayyorlandi. Bunda Finlandiya, Singapur, Koreya Respublikasi, Angliya kabi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarning tajribalari o'rganildi. Avvalgi o'quv dasturlari mazmuni 90% nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan. Yangi Milliy o'quv dasturi mazmuni 50% nazariya 50% amaliyotdan iborat bo'ladi va o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash. O'quv dasturlarida baholash esa faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi. Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilar qiziqishiga ko'ra fanlarni tanlab o'qish imkonini beruvchi variativ o'quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni yaratiladi. Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritiladi.

1.3. Ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashning mavjud holati

Bugungi kun o'quvchisi internetga oshno, zamonaviy texnika va texnologiyadan to'laqonli foydalana oladi. Demak, uni darsga darsga, kitobga ilimga qiziqtirish, e'tiborini egallash uchun zamonaviy yondashuv talab etiladi. Darsliklar bilan birga multimedia ilovalari va boshqa raqamli mahsulotlar ham ishlab chiqilayotgani bu yo'ldagi muhim qadamdir. Demak bo'lsak yangilanayotgan darsliklar va boshqa o'quv materiallari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga, ularda tanqidiy va ijodiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yoshlar esa mamlakatimizning ertangi istiqboli va taraqqiyotining hal qiluvchi kuchidir.

Ta'limni isloh qilish bo'yicha keng amaliy harakatlar 2017-yildan boshlandi. Umumiy o'rta ta'limda eski davlat ta'lim standartlari (DTS) o'rnini bosadigan va ta'limga o'zgarishlar kiritiladigan milliy o'quv dasturi ishlab chiqilmoqda.

“Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi (MO‘D) o‘quv-me’yoriy hujjat bo‘lib, u o‘quv reja va fanlarning o‘quv dasturlari, o‘qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqishga asos bo‘ladi. U bo‘yicha yaratilayotgan yangi darsliklar, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar, mashq daftarlari, o‘quv-metodik materiallar ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi”¹⁶. U pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradigan dasturdir.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida 100 ta maqsad belgilab olingan. Undagi 5 ta maqsad va 18 ta vazifa evosita umumiy o‘rta ta’lim bilan bog‘liq. Taraqqiyot strategiyasining 42 -maqsadiga ko‘ra, “2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklar ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqilib, amal da joriy etiladi. Milliy o‘quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan, 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar hamda mobil ilovalar yaratiladi”¹⁷. Umumta’lim maktablarida darslik va o‘quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o‘tkazish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan ilg‘or xalqaro tajriba asosida "Milliy o‘quv dasturi"ni tuzish, mazkur dastur asosida 2021-2022-o‘quv yilidan o‘quvchilarni uchun yetti tilda yangi avlod darsliklarini, ushbu sinflarda dars beruvchi o‘qituvchilarga metodik qo‘llanmalar, o‘quvchining mashq daftari, multimedia ilovalarini yaratishdi va nashr ettirishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori ilovasining 4-bandiga ko‘ra “Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim o‘quv dasturlari va fanlarning

¹⁶ Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -Toshkent, 2020.6-b.Lex.uz

¹⁷ 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot stratigeyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 28.01.2022 -yildagi PF-60 son farmoni va uning 1-ilovasi // Lex.uz.

uzluksizligini ta'minlash"¹⁸ vazifasi belgilangan. Qaror ijrosiga binoan Uzluksiz ta'lim tizimida matematika fani uzviyligini ta'minlagan holda milliy o'quv dasturi majmuasini tayyorlashning maqsad va vazifalar belgilandi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Maktabgacha ta'lim, Maktabgacha va maktab ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirliklari hamkorligida 32 nafar matematika fani mutaxassis olimlari, tajribali mutaxassislardan iborat ekspertlar guruhini tashkil etdi. Ular ko'magida matematika fanidan har bir ta'lim turi uchun konsepsiyalar va alohida o'quv dasturlari loyihalari tayyorlandi.

Uzluksiz ta'lim tizimida fan dasturlarining uzviyligi ta'minlanmaganligi ta'lim sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim turlariaro mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko'p soat ajratilgani, fan mazmuni deyarli nazariy ma'lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar aniqlandi. O'quv va fan dasturlarini takomillashtirish jarayonida xalqaro tajribalar jumladan, Finlyandiya tajribasi o'rganildi. umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturlarini tahlil qilishda YUNISEF ko'magida Singapur, Koreya, Yaponiya, Gonkong dasturlari, Prezident maktablari bilan Kembrij tajribasi va o'quv dasturlari o'rganildi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limivazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi va xalqaro ekspertlar tomonidan milliy o'quv dasturining loyihasini ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda va 2020-2021 o'quv yilida hududiy Maktabgacha va maktab ta'limipedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari hamda tegishli oliy ta'lim muassasalarida ekspertizadan o'tkazilishi belgilab olindi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan mahalliy olimlar va UNICEF xalqaro ekspertlari bilan birgalikda Milliy o'quv dasturi loyihasi ishlab chiqilgan. "Milliy o'quv dasturi loyihasini tayyorlashda 246 nafar milliy ekspertlar,

¹⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori.Lex.uz

jumladan 119 nafar maktab o‘qituvchilari, Oliy ta’limdan 105 nafar professor-o‘qituvchilar, 22 nafar fan metodistlari, shuningdek UNICEF va USAID xalqaro tashkilotlari orqali jalb qilingan 16 nafar xalqaro ekspertlar ishtirok etgan”¹⁹.

Milliy o‘quv dasturining komponentlari malaka talablari (DTS), fan konsepsiyalari, o‘quv reja, fan o‘quv dasturlari, o‘qitish metodologiyasi, baholash tizimidan iborat. Ekspertiza xulosalariga ko‘ra ishchi guruh tomonidan Milliy o‘quv dasturining barcha komponentlari takomillashtiriladi va u asosida 2021-yilning birinchi choragidan boshlab to‘liq to‘plamda 1-,2-sinflar uchun darsliklarning yangi avlodi yaratiladi. Milliy o‘quv dasturi 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich tajriba-sinovdan o‘tkazilib, 2026-2027 o‘quv yiliga qadar to‘liq amaliyotga joriy etilishi kutilmoqda.

1.3.1.jadval.

Umumiy o‘rta ta’limning amaldagi DTS va yaratilayotgan milliy o‘quv dasturining qiyosiy tahlili

№	Amaldagi DTS (2017 y)	Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi (2021-2027)	Farqi takomillashtirishdan kutilayotgan natijalar
1	12 yillik ta’limning A1, A2 va B1 darajalari bo‘yicha bitiruvchilarga qo‘yiladigan malaka talablari	Umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilari va har bir sinf bo‘yicha o‘quvchilar faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar	Har bir fan va sinf uchun o‘quvchilarda shakllantiriladigan va rivojlantiriladigan ko‘nikmalar belgilanadi.
2		Umumta’lim fanlari kontsepsiyalari	Barcha fanlarning kontsepsiyalari orqali fanning maqsad va vazifalari, o‘qitishni rivojlantirish, o‘quv-metodik ta’minotini yaxshilash va fanlararo uzviylik hamda uzluksizligini ta’minlanishi kabi tamoyillar belgilanadi.
3	Umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasida fanlar soni: 1-4-sinflarda 10 ta, 5-11-sinflarda 13-15 ta, o‘quv yuklama 327 soatdan iborat.	Umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasida fanlar soni: 1-4-sinflarda 9-10 ta, 5-9-sinflarda 11-14 ta, 10-11-sinflarda 12 ta yo‘nalishda variativ o‘quv rejalari, o‘quv yuklamasi 314	Umumta’lim fanlari soni va o‘quv yuklamalari optimallashtiriladi: Atrofimizdagi olam (1-2-sinf), Tabiatshunoslik (2-4-sinf), Biologiya (5-6-sinf), Geografiya (5-6-sinf), Fizika (6-sinf) fanlarini

¹⁹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazining o‘quvchilarni matematika fanidan baholash bo‘yicha mashq daftari №3. 4-sinflar uchun. 10 b.

	Ayrim fanlar haftasiga 0,5 yoki 1 soatdan o'qitiladi (bu samarasiz).	soatdan iborat, fanlarga ajratilgan soatlarning eng kichik hajmi 1 soat bo'lib, bunday fanlar kamaytiriladi. O'quv reja	integratsiyalash va optimallashtirish natijasida 1-6-sinflarda Tabiiy fanlar (Science) joriy etiladi, Tarbiya, Matematika, Informatika, Texnologiya, Geografiya va Iqtisod, Tabiiy fanlar tarkibiga integratsiya qilinadi, ilg'or xorijiy tajribaga ko'ra takomillashtiriladi. natijada fanlar soni optimallasadi. 10-11-sinflarda ayrim fanlarni tanlov asosida o'qitish joriy etiladi.
4	Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasida fanlar soni: 1-4-sinflarda 10 ta, 5-11-sinflarda 13-15 ta, o'quv yuklama 327 soatdan iborat. Ayrim fanlar haftasiga 0,5 yoki 1 soatdan o'qitiladi (bu samarasiz).	Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasida fanlar soni: 1-4-sinflarda 9-10 ta, 5-9-sinflarda 11-14 ta, 10-11-sinflarda 12 ta yo'nalishda variativ o'quv rejalari, o'quv yuklamasi 314 soatdan iborat, fanlarga ajratilgan soatlarning eng kichik hajmi 1 soat bo'lib, bunday fanlar kamaytiriladi. O'quv reja	Umumta'lim fanlari soni va o'quv yuklamalari optimallashtiriladi: Atrofimizdagi olam (1-2-sinf), Tabiatshunoslik (2-4-sinf), Biologiya (5-6-sinf), Geografiya (5-6-sinf), Fizika (6-sinf) fanlarini integratsiyalash va optimallashtirish natijasida 1-6-sinflarda Tabiiy fanlar (Science) joriy etiladi, Tarbiya, Matematika, Informatika, Texnologiya, Geografiya va Iqtisod, Tabiiy fanlar tarkibiga integratsiya qilinadi, ilg'or xorijiy tajribaga ko'ra takomillashtiriladi. natijada fanlar soni optimallasadi. 10-11-sinflarda ayrim fanlarni tanlov asosida o'qitish joriy etiladi.
5	Umumta'lim fanlari o'quv dasturlari mazmuni 80% nazariya va 20% amaliyotga yo'naltirilgan. Dasturlar mazmuni chiziqli o'qitishga moslashgan, masalan, Biologiya fani 5-sinfda Botanika (o'simlik dunyosi), 6-sinfda Zoologiya (hayvonot dunyosi), 7-11-sinflarda esa odam va uning evolyutsiyasi,	Umumta'lim fanlari o'quv dasturlari mazmuni 50% nazariya va 50% amaliyotga yo'naltiriladi va spiralsimon o'qitiladi, masalan, Biologiya fani 7-11-sinflarda borliq, tabiat va insonning yaxlit evolyutsiyasini soddadan murakkabga tamoyili asosida inson, flora va fauna uyg'unlikda o'rganiladi. Hayotga bog'lab, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi.	Ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablari va spiralsimon o'qitish metodologiyasi asosida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Biologiya fani 1-6-sinflarda Tabiiy fanlar (Science) tarkibida o'qitiladi va 7-11-sinflarda alohida fan sifatida o'qitiladi va bunday yondashuv o'quvchida borliqni, atrof-muhitni yaxlit tasavvur qilish, unda o'zining munosib o'rnini topishga ko'maklashadi.

	barchasi bir-biridan ayro ravishda ketmaket o'qitilgan.		
6	Boshlang'ich sinflarda ayrim fanlar bo'yicha darslikning metodik qo'llanmasi va o'quvchi daftari joriy etilgan.	O'qitishning samarali metodologiyasi joriy etiladi. O'qituvchi kitobida dasturda berilgan har bir mavzuni o'qitish va o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beruvchi ilg'or metodlar, o'quv topshiriqlari beriladi.	Har bir fan va sinf bo'yicha o'qituvchi kitobi (o'qituvchi konspekti bosqichma-bosqich to'liq bekor qilinadi), tegishli fanlar bo'yicha 1-11-sinflar uchun o'quvchi ish daftarlari joriy etiladi. O'qituvchi kitobi 2021-2022 o'quv yilidan bosqichma-bosqich joriy etilishi kutilmoqda.
7	Umumta'lim maktablari 5-11-sinf o'quvchilarini baholashning 5 ballik reyting tizimi joriy etilgan. Baholashning bitta"summativ" metodikasi joriy etilgan.	Umumta'lim maktablari 1-11-sinf o'quvchilari faoliyati natijalarini baholashning milliy tizimi yaratiladi. O'quvchilarda savodxonlik, kompetentsiyalar va shaxsiy sifatlarni baholashning samarali metodikalari joriy etiladi.	Amaldagi baholash tizimi aksariyat hollarda o'quvchilarning bilimini baholashga mo'ljallangan bo'lib, asosan summativ baholash metodologiyasi qo'llanilgan. Kelgusida baholashning zamonaviy metodologiyalari joriy etiladi. O'quv dasturiga kiritilgan har bir mavzu bo'yicha 3 darajali tabaqalashtirilgan o'quv topshiriqlari va nazorat materiallari ishlab chiqiladi va yagona elektron bazaga joylashtiriladi. O'qituvchi kitobiga baholash mezonlari va instrumentlari kiritiladi.
8	O'qituvchilarni tayyorlash DTS, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi davlat talablari asosida joriy etilgan.	Milliy o'quv dasturiga mos ravishda takomillashtiriladi.	O'quv dasturlari o'qituvchilarning metodik ehtiyojlari asosida 3 darajali tabaqalashtirilgan tarzda ishlab chiqilishi va malaka oshirish kurslari zamonaviy shakllarda, jumladan, masofaviy, kredit-modulli va shakllarda tashkil etilishi mumkin.

1.3.1.jadval.Umumiy o'rta ta'limning amaldagi DTS va yaratilayotgan milliy o'quv dasturining qiyosiy tahlili

Tahlillarga ko'ra shuni aytish mumkinki,"Maktabgacha va maktab ta'limitizimida ilk bor joriy etilishi kutilayotgan umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi tizimli va yaxlit ishlab chiqilayotgan 6 komponentli milliy hujjat bo'lib, 2017-yilda joriy etilgan 2 komponentli Davlat ta'lim standartini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, o'qitish va baholashning samarali metodologiyalari asosida bosqichma-bosqich joriy etish orqali ta'lim sifatini yangi

bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi"²⁰. Milliy o'quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan, 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar hamda mobil ilovalar yaratiladi. Umumta'lim maktablarida darslik va o'quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi. Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi tomonidan ilg'or xalqaro tajriba asosida "Milliy o'quv dasturi"ni tuzish, mazkur dastur asosida 2021-2022-o'quv yilidan o'quvchilarni uchun yetti tilda yangi avlod darsliklarini, ushbu sinflarda dars beruvchi o'qituvchilarga metodik qo'llanmalar, o'quvchining mashq daftari, multimedia ilovalarini yaratishdi va nashr ettirishdi.

2020 yilda yaratilishi boshlangan milliy o'quv dasturlarida XXI asr ehtiyojlaridan kelib chiqib o'quvchilarda shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikmalar belgilangan. Ta'lim sohasidagi standartlar dunyo mamlakatlarida turli shakl va uslublarga ega. Fransiya, Yaponiya, Italiya, Xitoy, MDH mamlakatlarida ta'lim markazlashtirilgan va standartlar butun mamlakat uchun yagona o'quv dasturlari va rejalar ko'rinishida joriy etilgan. Ana shu mamlakatlarda ham so'ngi 10-20 yil ichida ta'lim standartlari bo'yicha yangiliklar, yangicha yondashuvlar yuzaga keldi.

Ta'lim turlaridaro mavzularning takrorlanishi, ayrim mavzularga haddan ziyod ko'p soat ajratilgani, fan mazmuni deyarli nazariy ma'lumotlarga asoslanganligi hamda xalqaro tadqiqotlar singdirilmaganligi kabi muammolar aniqlandi. Xususan, Matematika fanidan mavjud o'quv dasturlari qiyosiy jadvallar asosida tahlil qilindi. Birlamchi tahlillarga ko'ra takrorlangan mavzular 9 ta, uzviyligi ta'minlanmagan mavzular 29 ta, yangilanishi zarur mavzular 94 ta, olib tashlanadigan mavzular 43 ta, xalqaro tadqiqotlar bo'yicha kiritiladigan mavzular soni 89 ta, boshqa ta'lim turiga o'tkaziladigani 20 ta ekanligi aniqlandi va dasturlar to'g'rilandi.

²⁰Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish, mazmun, metodologiya, baholash va ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2008-y. 7-b

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalqaro tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash jarayoni o'quvchilarning kasbiy tayyorgarlik, kreativlikni talab qilish, o'quvchilarni erkin ijodiy, me'yoriy, fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning mantiqiy tafakkur, anglash va tushuntirish malakalarini takomillashtirish asosiy fazifa sifatida belgilanmoqda. Ko'rinib turibdiki xalqaro tajribalarni o'rganish dolzarb zaruriyat degan xulosa o'rinli bo'ladi. Milliy o'quv dasturi-o'quv-me'yoriy hujjat bo'lib, u o'quv reja va fanlarning o'quv dasturlari, o'qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqishga asos bo'ladi. U bo'yicha yaratilayotgan yangi darsliklar, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, mashq daftarlari, o'quv-metodik materiallar ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy o'quv dasturida quyidagilar yetakchi o'rin tutadi:

- izchillik, uzviylik, uzluksizlik;

-jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, fan, texnika va ilg'or texnologiyalar rivojining istiqbollari, xalqaro ta'lim standartlari darajasining mavjud holatini inobatga olish asosida, ta'lim mazmunini jahon ta'lim standartlariga moslashtirish;

- ishlab chiqarish, fan va ta'lim integratsiyasini ta'minlash.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o'quv qo'llanmalari kiradi. Namunaviy o'quv dasturlari Makatabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo'ladi.

-ta'lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlari yo'nalishlarining ommalashishi, ishtirokchilar safi va tadqiqot yo'nalishlarining kengayishi bilan bog'liq o'zgarishlar;

- xalqaro baholash natijalariga ko'ra davlatlar va sohalarning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi strategik dasturlarning qabul qilinishi bilan bog'liq o'zgarishlar yuz bermoqda.

Ikkinchidan, ta'lim tizimida yuzaga kelgan muammolarning yechimini ta'lim sifatidagi yo'qotishlarsiz, ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan holda, yangi yondashuvlar asosida topish talab etilmoqda.

Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish to'g'risida"gi buyrug'i asosida xalqaro talablarga javob beruvchi umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish boshlangan. Uning loyihasi yuqori salohiyatli milliy va xalqaro ekspertlar, UNICEF, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlarning maslahatchilari ishtirokida tayyorlandi. Bunda Finlandiya, Singapur, Koreya Respublikasi, Angliya kabi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarning tajribalari o'rganildi. Ta'lim sohasidagi standartlar dunyo mamlakatlarida turli shakl va uslublarga ega. Fransiya, Yaponiya, Italiya, Xitoy, MDH mamlakatlarida ta'lim markazlashtirilgan va standartlar butun mamlakat uchun yagona o'quv dasturlari va rejalar ko'rinishida joriy etilgan.

II.BOB. XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA MILLIY DASTURLARNI LOYIHALASH AMALIY TEXNOLOGIK TIZIMI

2.1.Xorjiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalash mazmuni va mohiyati

Milliy o'quv dasturi asosida tayyorlanayotgan boshqa fanlarning darsliklari, mashq daftarlari va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarda ham xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash, ularning o'lchov va me'zonlarini hisobga olish ko'zda tutilgan. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar turli fanlar bo'yicha umumiy bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi. Ayni paytda Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan va sinov-tajribadan o'tgan 1- va 2-sinf darsliklari allaqachon amaliyotga joriy etildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan umumiy o'rta ta'limni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari barqaror taraqqiyotga olib bora oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlab berish maqsadida ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilab berildi.

“Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 159-bandida 2020-yil 1-iyunga qadar “Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish”, bunda “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish” belgilab qo'yilgan²¹. Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhlar tarkibi shakllantirildi hamda Yo'l xaritasi tasdiqlandi.

²¹ Muslimov N.A. Elektron darslik yaratish metodik tamoyillari va texnologiyalari. / Infocom.uz, 2004. –152 b.

Umumiy oʻrta taʼlimning tarixida ilk bor joriy etilishi kutilayotgan Umumiy oʻrta taʼlimning Milliy oʻquv dasturi amaldagi davlat taʼlim standarti, oʻquv dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, keng jamoatchilikning darsliklarning mazmuniga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, taʼlimning keyingi bosqichi hamda zamonaviy mehnat bozorining real talablari asosida, xorijiy davlatlarning taʼlim sohasida erishgan natijalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilmoqda. Jahonda rivojlangan mamlakatlar taʼlim sifati loyihaviy oʻqitish vositasida ona tili va oʻqish darslari orqali oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatini modellashtirish muammosining yechimi ularning innovatsion, kreativ faolligining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan loyihaviy taʼlim vositasida ona tili va oʻqish darslarida taʼlim subyektlari faoliyatini modellashtirishda ularning kasbiy kompetentligini takomillashtirish lozimligi alohida eʼtirof etilmoqda. “Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlarda ona tili va oʻqish darslarida taʼlim subyektlari faoliyatini loyihaviy yondashuv asosida tashkil etish, oʻyinlar, debatlar asosida rivojlantirish amaliyoti keng joriy etilgan”²². Ayniqsa, ona tili va oʻqish darslari orqali loyihaviy yondashuv asosida oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatini modellashtirish, ularda kommunikativ kompetentlikni rivojlanlan-tirishning innovatsion-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Oʻquv jarayonida avtoritar yondashuvdan voz kechishga, taʼlim oluvchilarning tashabbuskorligini ragʻbatlantirishga qaratilgan, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda oʻzaro hamkorlik oʻrganish imkonini beruvchi, oʻquvchining shaxs boʻlib shakllanishiga yordam beradigan loyiha faoliyatini zamonaviy taʼlim tizimiga tatbiq etish masalasi dolzarblashmoqda. Maktab oʻquvchilarining ijtimoiy muhim loyihalarni amalga oshirishda qatnashishi ularning mukammal bilim egallashi hamda malakaga ega boʻlishi, mustaqil faoliyat olib borish koʻnikmalariga ega boʻlish imkonini beradi. Shu jihatdan olib

²² Бабанский, Ю.К. Замонавий умумтаълим мактабида ўқитиш методикаси /Ю.К. Бабанский. М.: Маърифат, 1985. - 208 б.

qaraganda, ijtimoiy hamkorlikka asoslangan loyihalash faoliyati vositasida maktab bitiruvchilarini ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashga zarurat ortmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida ta'limni isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, darsliklarning yangi avlodini yaratish, sohaga ilg'or tajribalarni tatbiq etish, Finlandiya tajribasini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashga oid samarali tavsiyalar ishlab chiqildi. Buning uchun me'yoriy-huquqiy baza yaratilmoqda. Maktab ta'limini strategik rivojlantirishning "yo'l xarita"lari ishlab chiqildi va xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda. Muxtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "...boshlang'ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yiladi. Hozirgi vaqtda ular xalqaro ekspertizadan o'tib, o'zimizda sinovdan o'tkazilmoqda. ...Bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirib, kompyuterda ishlashni o'rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasbhunarlariga, san'at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozim. O'quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur"²³ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Dastlab loyiha, loyihaviy ta'lim tushunchalari mohiyatini aniqlashtirib olamiz:

1."Loyiha (design - dizayn) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi.

2.Loyiha (proyekt)– tushunchasi kengroq ifodalanib, ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

3.Loyihalashtirish - («loyiha» so'zidan) –real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

4.Ta'lim ma'nosidagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan talabning muammoni izlash,uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Lex.uz

to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus (laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

5.Loyihaviy ta'lim-ta'lim modeli bo'lib,unda o'qituvchi tomonidan loyihalash ko'rinishiga ega, muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natija (mahsulot) ga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil o'quv faoliyati tashkil etiladi"²⁴.

Loyihalashning umumlashgan algoritmini bajarish qobiliyati:
-“g'oyani ilgari surish;

-muammoni ko'rsatish, maqsadni belgilash va uni hal etish vazifalarini ifodalash;

-natijaga erishishning qulay usul va vositalarini asosli tanlash;
-hamkorlikda ishlashni rejalashtirish va loyihadagi majburiyatlarni taqsimlash;
-natijalarni rasmiylashtirish; ularning umumiy taqdimotini o'tkazish;

- o'z-o'zini baholash va refleksiyaning amalga oshirish"²⁵.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga Maktabgacha va maktab ta'limitizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA–o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA)ning TIMSS –

²⁴ Ibadullayev K.M. Ta'lim mazmuniga qo'yiladigan zamonaviy talablar (PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida). Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. №12, 2021, 194-199 b.

²⁵Axmadaliyev Murodjon Ulug'bek o'g'lining “Ta'lim sifati oshirishda xalqaro baholash dasturlarini hamda raqamli texnologiyalarni o'rni” nomli maqolasi. И73 «Интернаука»: научный журнал–№ 2(225). Часть.3. Москва, Изд. «Интернаука», 2022. – 96 с. 76-77.

matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan- texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Bundan ta'lim bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham dalolat bermoqda. Shu o'rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA- o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik. Bundan tashqari, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS-matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda matematika fanini o'qitishga xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash me'zonlari va mexanizmlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

“STEAM (S – science - tabiiy fanlar T – technology - texnologiya, E – engineering - muhandislik, A – art - san'at, M – mathematics - matematika) ta'lim texnologiyasi aniq fanlar blok-modulida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan”²⁶. Bu texnologiyani

²⁶ Axmadaliyev Murodjon Ulug'bek o'g'lining “Ta'lim sifatini oshirishda xalqaro baholash dasturlarni hamda raqamli texnologiyalarni o'rni” nomli maqolasi. И73 «Интернаука»: научный журнал–№ 2(225). Часть.3. Москва, Изд. «Интернаука», 2022. – 96 с. 76-77.

amalga oshirishda o'quvchilar tomonidan turli texnik qurilmalarni yasash uchun loyihalar yaratish, loyiha asosida qurilmaning maketini yaratish va uni amaliyotda ishlatib ko'rish, kamchiliklarini topish hamda uni bartaraf etish kabi vazifalar bajariladi.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, kichik o'quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta'lim fanlarini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida fan o'quv dasturlariga amaliy mashq va tatbiq hamda loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat muayyan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va fanning kundalik turmush bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochadi va ta'lim samaradorligini oshiradi. Xalqaro tajribalarini qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz. Shu maqsadda butun ta'lim tizimi takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta'lim rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoqda. Umumiy o'rta ta'lim sifati ilg'or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda.

O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o'rnida foydalanish talab etiladi. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda loyiha ishlarining o'rni e'tiborga molik. O'quvchilar bir o'quv yilida o'zlari qiziqqan fani yoki ta'lim sohasidan faqat bitta loyiha ishini bajarishlari tavsiya etiladi. Loyiha ishi mavzulari o'qituvchilar tomonidan bitta yoki bir necha o'quv fanlari doirasida muammoli vaziyat yoki keys sifatida tanlanadi. Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilar alohida-alohida yoki qiziqishlariga qarab 3-4 kishilik guruh bo'lib ishlashlari ham mumkin. Loyiha ishi o'quv yili oxirida o'tkaziladigan himoya bilan tugaydi.

Himoyani bitta yoki bir necha o'quv fanlari doirasida konferensiya tarzida o'tkazilishi mumkin. Loyiha ishi mavzusi ustida o'quvchilarning individual yoki guruhviy ishi quyidagi o'quv faoliyatlarni o'z ichiga olishi mumkin:

-“o'z izlanish faoliyatlarini rejalashtirish, vazifalarni o'zaro taqsimlab olish, oldilariga o'quv maqsadlarini qo'yish, kerakli ma'lumotlarni izlab topish, mavzuga doir muammoli vaziyat yechimlarini qidirish, ulardan eng maqbulini tanlash va uni asoslash, zarur hollarda so'rovlar yoki tajribalar o'tkazish, loyiha ishi natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash, o'z faoliyatlarini tahlil qilish va baholash, loyiha ishi himoyasi uchun taqdimot tayyorlash va uni himoya qilish”²⁷.

STEAM ta'limini joriy etish orqali o'quvchilarning fanlar integratsiyasi asosida savodxonlik darajasini oshiradi;

-“ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlari va majmualarni yaratish hamda ularni yagona axborot ta'lim platformasiga joylashtirish tizimi yaratiladi;

- tayanch o'quv rejaga muvofiq matematika fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, yangilangan mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqiladi;

- matematika fanlarining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan holda yangi baholash tizimini ishlab chiqiladi hamda u asosida matematika fanini bilish darajasini baholash bo'yicha milliy sertifikatlash tizimini joriy qilinadi;

- o'quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlar bazasini yaratiladi va mamlakatimiz o'quvchilarning mazkur xalqaro baholash dasturlariga muosib qatnashishi ta'minlanadi;

²⁷ Babanskiy, Yu.K. Zamonaviy umumta'lim maktabida o'qitish metodikasi /Yu.K. Babanskiy. M.: Ma'rifat, 1985. - 182 b.

- matematika fanlari bo'yicha sinflar kesimida o'quvmetodik majmualarni (darslik, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, elektron darsliklar) yangi avlodini ishlab chiqiladi va ta'lim jarayoniga joriy etiladi;

- matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha innovatsion metodikalar yaratiladi;

- STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'limtarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvga e'tibor qaratiladi;

- o'quvchilarni o'quv loyiha va o'quv-tadqiqotchilik rivojlantiriladi;

- umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasi orqali o'quvchilar kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etiladi;

- matematika fani o'qituvchilarining fan bo'yichha bilim, ko'nikma va mahoratini uzluksiz yangilab borish maqsadida, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy axborot maydoni yaratiladi hamda malaka oshirish tizimi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tubdan yangilanadi;

- ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilib, yagona virtual muhit - axborot ta'lim platformasi ishga tushiriladi, va unga matematika fani bo'yicha electron kutubxona, darslarning o'quv-uslubiy ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan barcha electron resurslarni, video darslarni, virtual laboratoriya, multimediali interaktiv animatsion ilovalar joylanadi;

- maktablar zamonaviy o'quv sinflari va laboratoriyalari, yangi turdagi o'quv mebellari, jihozlari va asbob-uskunalari, ko'rgazmali qurollar, kompyuter texnikasi va boshqa o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlanadi hamda zamonaviy maktab davlat dasturi doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablari bosqichma-bosqich SMART sinflari, STEAM mashg'ulotlarini o'tkazishga mo'ljallangan o'quv sinflari va ustaxonalari tarmog'i joriy etiladi"²⁸.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazining o'quvchilarni matematika fanidan baholash bo'yicha mashq daftari №1. 4-sinflar uchun. 11 b.

Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan, yangi, ijodiy fikrlovchi, xorijiy rivojlangan davlatlarning yoshlari bilan tenglasha oladigan avlodni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarining puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Maktabgacha va maktab ta'limitizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlar tashkil etilishi qayd etilgan.

1."Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang'ich 4-sinf o'qivuvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;

2.Trends in Mathematics and Science Study (TIMSS) —4 va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun; The Programme for International Student Assessment (PISA) —15 yoshli o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

3.The Teaching and Learning International Survey (TALIS) —rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun. Mana shu qaror asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Xususan, 2018-yil 12-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida Xalqaro o'quvchilar bilimini baholash dasturida (Agreement for participation programme for international student

assessment (PISA) 2021) ishtirok etish to‘g‘risida kelishuvga erishildi”²⁹. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta‘lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta‘sir o‘tkazadi. Har bir davlat o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o‘zining ta‘lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeini ko‘radi hamda ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirishda o‘z yo‘nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi.

PIRLS-tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta‘lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta‘lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning oxirgi 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko‘ra Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilmoqda. Albatta bunday tadqiqot Maktabgacha va maktab ta‘limisohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. PIRLS tadqiqoti 2021-yilda mamlakatimizda o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

TIMSS-ham jahon mamlakatlari ta‘lim tizimida keng tadbiiq etilmoqda. TIMSS dasturi Ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, ushbu tadqiqot 4 va 8 sinf o‘quvchilari orasida matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha ta‘limning sifati, darajasi, fanga bo‘lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o‘xshab, o‘quvchilar, maktab ma‘muriyati va o‘qituvchilari orasida qo‘shimcha so‘rovnomalar o‘tkazadi va fan sohasida to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa o‘sha mamlakatda ishlab

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazining o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash mo‘ljallangan axborotnomasi 1. “O‘qituvchi” nashriyotmatbaa ijodiy uyi. Toshkent 2020. 128 b.

chiqilgan ta'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi.

Rivojlangan davlatlarda ta'lim oluvchilarining intellektual rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Blue School, Steve Jobs School, Special Music School (Amsterdam), Alt School (San Francisco), Talent Culture Academy (Canada), "Dzyuku" (Yaponiya) kabi maktablar o'sib kelayotgan avlod tafakkuri, kreativligini rivojlantirishni yetakchi maqsad sifatida belgilab olishgan. Bu esa, jahonda zamonaviy fan yutuqlari, ilmiy kashfiyotlar ijodiy, erkin, tanqidiy, mustaqil tafakkur natijalariga ehtiyoj ortib borishini ko'rsatadi. Ushbu masalaning eng muhim tomoni esa, dunyo maydoniga chiqish uchun tafakkurning teranligi, nostandart vaziyatlarda o'zlashtirgan bilimlarini aniq qo'llay oladigan avlodni tarbiyalash muhimligini ko'rsatadi. Dunyoning rivojlangan davlatlari amaliyotida yosh avlod tafakkurini, intellektini rivojlantirish o'z-o'zidan mavjud pedagogik shart-sharoitlar, metod va usullar bilan emas, balki yangi innovatsion g'oyalar, shuningdek, ta'limning rivojlanish bosqichidagi eng so'nggi yutuqlar orqali amalga oshirilmoqda. O'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, intellektini boyitish jahonning yetakchi davlatlarida turlicha amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda "AQShda bu masala bo'yicha P.Torrens, Fransiyada P.Debrai-Retzen "Iqtidorli talabalar ustozlari modeli"ni taklif qilishgan"³⁰. Mazkur modelga ko'ra o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha o'quvchisida qiziqish uyg'ota olishi, tashabbuskor va keng fikrlashga o'rgata olishi ko'zda tutilgan. AQShning "Merit" dasturi ham har yili aynan tafakkuri keng, zehni, fikrlashi teran o'quvchilarni tanlab oladi. Bu esa intellektni aniqlash testlari orqali amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada intellekti yuqori bolalarni tadqiqot qilish Markazi mavjud bo'lib, unda kengaytirilgan va tezlashtirilgan kurslar asosida o'qitish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro baholash dasturlaridan TIMSS-maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, ta'lim yutuqlarini baholash

³⁰ N.Sadiqov – "PISA, TIMSS so'zlari nimani anglatadi?" nomli maqolasi. 23-oktabr 2018-yil. 6-b.

xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi, sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Mazkur dasturning o'ziga xosligi shundaki, u dunyodagi maktablarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilarning bilim darajasi, tahsil oluvchilarning oilaviy muhiti bilan bog'liq omillarni o'rganadi. Ko'rsatib o'tilgan omillar matematika fanlarini o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'lib xizmat qiladi.

2015-yil TIMSS tadqiqotlari natijalariga ko'ra AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan.

Umuman olganda mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta'lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki natijasida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kutilmoqda:

- "olingan tadqiqot natijalari mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi;

- milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi;

- xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi;

- Yurtimizda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro

standartlarga moslashuviga olib keladi”³¹. Shunday ekan o‘quvchilarimiz XXI asr talablariga xos bo‘lgan ta‘lim shaklida bilim olishi, ya‘ni olgan bilimlarini xuddi enslopediya ma‘lumotlaridek yodlab olish emas, balki, ma‘lumotlarni tahlil qila olish va ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqara oladigan avlod sifatida voyaga yetishi darkor.

Bugungi kunda o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda quyidagilarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq:

-ona tili, matematika va tabiiy fanlarni o‘qitishning shakl, metod va texnologiyalarni zamon talablariga moslashtirish;

-bu borada pedagog kadrlarni malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

-mazkur fanlar yuzasidan bilimlar bazasini yaratish;

-yuqori salohiyatli kadrlarni xorij davlatlarga stajirovka o‘tashini tashkil qilish. Demak, ushbu xalqaro loyihaning asosiy maqsadi o‘quvchi yoshlarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va maktab ta‘limida olgan bilimlarini katta hayotda qay darajada qo‘llay olish qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazishdan iboratdir.

2.2. Milliy ta‘lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashning metodik ta‘minoti

Bugungi kunda zamonaviy maktablarning xalqaro standartlarga raqobatbardoshligini oshirish maqsadida PISA, PIRLS, TIMMS kabi yuqori darajada e‘tirof etilayotgan baholash dasturlari talablari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish zarurati tug‘ilmoqda. Bu borada mamlakatimizda milliy o‘qitish tizimini isloh etish maqsadida umumta‘lim fanlaridan Davlat ta‘lim standartlari, o‘quv reja va dasturlari, yangi avlod darsliklarini zamonaviy talablar asosida yaratish ishlariga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda.

Ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa o‘qituvchi obro‘sini ko‘tarishga qaratilgan sa‘y-harakatlar va hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan juda xursandmiz. Biroq tan olish kerakki, ta‘lim samaradorligi

³¹Abdurahim Nosirovning “O‘quvchilar bilimi va kompetensiyasi xalqaro mezonlar asosida baholanadi” nomli maqolasi.4-6 b.

ko'p jihatdan o'quv-uslubiy dasturlar va darsliklar saviyasiga ham bog'liq. Xususan, respublikamizda keyingi yillarda til savodxonligi va nutq madaniyatining keskin pasayib ketganligi, nafaqat og'zaki, hatto yozma nutqda ham o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilinmayotganligi, husnixatga umuman e'tibor qaratilmayotganligi, o'quv dasturlaridan insho, bayon, diktant kabi yozma ish turlarining deyarli chiqib ketganligi, darsliklarda faqat tayyor matn ustida ishlash va matn yaratish topshiriqlari berilayotganligining mevasi emasmi?! Yakuniy nazorat ishlarining test shakliga o'tkazilishi o'quvchilarni ijodiy fikrlash, bog'lanishli nutq tuzish, savodli va chiroyli yozish ko'nikma-malakalarini egallashga bo'lgan intilishlarini umuman yo'qqa chiqardi.

Xususan, "O'zbek tili" fanidan tuzilgan Milliy o'quv dasturini o'rgandilar va bandma-band tahlil qildilar. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar va o'rta maxsus ta'lim bo'g'inlarida davlat tilining o'qitilishi, amaldagi "O'zbek tili" dasturlari va darsliklaridagi mavjud kamchiliklar, ularni yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalardan boshlandi. Farzandlarini rus maktabida o'qitayotgan otalar shu maktablar uchun yozilgan darsliklardagi matnlarda kam qo'llanadigan so'zlarning ko'p uchrashi, bolalar yoshiga mos she'rlarning kamligi, qo'yilgan topshiriqlarning murakkabligi kabi kamchiliklarni sanay ketdilar. O'zbek tili—bu alohida fan. Boshqa fanlar kabi uning ham o'z tuzilishi, me'yorlari bor. Bu dasturni o'qigan kishi o'zbek tili haqida mutlaqo tasavvurga ega bo'lmaydi. Hamma narsa aralash-quralash berib tashlangan. Keyingi mavzuning avvalgi mavzu bilan qanday bog'liqligi bor, nima asosda shu ketma-ketlikda berilgan, qaysi ma'lumot yangi berilyapti, qaysinisi takror berilyapti, mutlaqo tushunarsiz. 2-, 3-sinflarga berilgan mavzu aynan shu shaklda 7-,8- hatto 10-sinflarda ham berilyapti.

O'zbek tili darslarini o'quvchilarning til tajribasiga ko'ra turkiyzabon va rusiyzabon guruhlarga ajratib, har biri uchun mos tarzda tashkil etish kerak ekan. Dasturda har bir mavzuda qanday nutqiy mavzu o'tilishi va unda qaysi grammatik vositani qo'llashga oid ma'lumot berilishi kerak. Shundan kelib chiqib, har bir mavzuda leksik va grammatik minimum berilishi kerak. Avvalgi dasturda har

holda nutqiy mavzu ham, grammatik mavzu ham ma'lum bir uzviylikda, osondan qiyinga qarab boradigan bosqichli ketma-ketlikda berilgan, har bir mavzuda berilgan leksik-grammatik material adabiy o'qish materiallari vositasida mustahkamlanib borilishi aniq ko'rsatilgan edi. Maktabda metod birlashma yig'ilishlarida rus guruhlarida dars beruvchi o'zbek tili o'qituvchilari darsliklarda berilgan matnlar va she'rlarda qiyin so'zlar, o'tilmagan grammatik konstruksiyalar ko'p uchrashi, ularni o'quvchilarga tarjima qilib tushuntirishda qiyinchiliklar mavjudligi, matn yaratish topshirig'i quyi sinflar uchun juda og'irligi haqida e'tirozli fikrlarni bildirar edilar. O'zbek tili darslariga o'quvchining yoshiga mos tarzda diktantning lug'at diktanti, saylanma diktant, ijodiy diktant kabi turlarini, bayon yozishni kiritish kerakligini qayta-qayta uqtirar edilar.

Yangi dasturda, hatto o'zbek tilida so'zlarni bog'lashning asosiy vositasi bo'lgan kelishiklar haqida umuman ma'lumot berilmagan. Tushum kelishigining qo'shimchasi-ni dasturga kiritilmagan, o'quvchi qachonni, qachonning qo'shimchasini qo'llashni bilishi va xatosiz yozishi uchun ularni farqlashga doir ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Dasturda bu variantlar ham mutlaqo berilmagan. Har bir fanning o'z tuzilishi, shunga mos mavzulari bo'ladi. Grammatika tilning tuzilishini, tilni nutqda qo'llash vositalarini o'rgatadi. Shunday ekan, til o'qitishda, albatta, uning grammatikasini ham berish shart. Faqat uni murakkab nazariy tarzda emas, oson tushuniladigan usulda berish kerak. "Milliy" deb atalgan ushbu dasturda o'zbek tilining, hatto milliy strukturasi ham aks etmagan. Dastur matnida doktor (shifokor o'rniga), xobbi (qiziqish o'rniga), fantastika, mnemotexnika, kriptografiya, umizmatika kabi ko'plab chet tili so'zlarining, faktologik matn kabi tushunarsiz atamalarning qo'llanganini qanday izohlash mumkin? Nazarimda, tuzuvchilar o'zbek tili emas, chet tili bo'yicha mutaxassis va ular chet tillari targ'ibotchilari. Dastur chet tillar, asosan, ingliz tili qolipidan olib tuzilgan, to'g'rirog'i, chet tili dasturlaridan ko'chirib olingan. Buni ona tilimizga nisbatan xoinlik deb hisoblayman.

Yangi dasturni tuzuvchilar fanlararo aloqa degan tushunchaning mazmun-mohiyatini yaxshi tushunmagan ko'rinadilar. Kimyo fani bilan fanlararo aloqa

kimyoning mavzularini, fizika yoki matematika bilan fanlararo aloqa ushbu fanlar mavzularini til darsida o'tish degani emas-ku? Dasturdagi "Kislorod O₂", "1+1=3", "360 gradus" kabi mavzularni til darsida o'tilishi o'qituvchilar tomonidan qanday qabul qilinarkin? Bu mantiqsizlik emasmi. Har bir fanni o'qitishning asosiy tamoyili osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon borish hisoblanadi, biroq o'zbek tili fanidan tuzilgan ushbu Milliy dasturda bu tamoyilga mutlaqo rioya qilinmaganligi meni ajablantirdi. Har bir sinf dasturi 3 bo'limga bo'lib berilgan, biroq bu 4 chorak bo'yicha taqsimotga to'g'ri kelmaydi. Har bir bo'limda mavzularning ichki bo'linishi bir mavzu uchun kamida 8-10 soat ajratilishiga olib kelganki, grammatikasi, adabiy o'qishi bo'lmasa, o'qituvchi bitta nutqiy mavzu bo'yicha 8-10 soat nimani o'tadi? Boz ustiga, yangi mavzudagi ko'p ma'lumotlar pastki sinflarda qayta-qayta berilgan. Biz ham o'zbek tili fanini 1-sinfdan o'yin tarzida, qo'shiqlar bilan tashkil qilishimiz mumkinku.

O'zbek tili darsliklariga bolalarbop she'rlar, mavzularga mos qo'shiqlar kiritilsa, darslarimiz jonli, qiziqarli bo'lsa bolalarning o'zbek tilini o'rganishga qiziqishi ortgan bo'lar edi. Darsliklarda maqollar juda ko'p berilgan. Maqol aslida mazmuni jihatdan nihoyatda murakkab, uning tag ma'nosini tushunish boshqa millat vakillari uchun ancha qiyin, uni har doim ham tarjima qilib bo'lmaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinflar darsliklariga maqollardan ko'ra, ertaklarni ko'proq kiritish kerak. Rus guruhlarida turli millatlar vakillari ta'lim olishgani uchun, mening nazarimda, o'zbek tili darslarini o'quvchilarning qaysi tilni bilishi, ya'ni til tajribasi asosida (masalan, rusiyzabon va turkiyzabon kabi) guruhlariga ajratib tashkil qilish kerak. Darsliklar o'quv materiallariga boy bo'lsa, o'qituvchi guruhga moslarini tanlab dars berishi oson bo'ladi. Buning uchun o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar kerak bo'ladi. Biroq o'zbek tili o'qituvchilari uchun yaratilgan o'qituvchi kitoblari shu darajada oz chop etiladiki, hatto maktabga bir dona yo yetib keladi yoki u ham yo'q.

"Metodik qo'llanmalar har bir o'qituvchining qo'lga yetib borishi va o'qituvchini izlanishga, ijodkorlikka undaydigan asosiy ish kitobiga aylanishi

kerak. O'quv dasturi ta'lim qaysi yo'nalishda ketishini belgilab beradigan, muayyan fan mazmunini ta'lim bosqichlari, umumta'lim sinflar kesimida uzviylik va uzluksizlikda taqsimlangan tarzda yoritilishini belgilab beradigan me'yoriy hujjat sanaladi"³². Shundan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim bo'g'ini hisoblanuvchi ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tili fani bo'yicha tuziladigan o'quv dasturi mazmun-mohiyati bilan o'zidan avvalgi maktabgacha ta'limning davomi bo'lishi va ayni vaqtda o'zidan keyingi ta'lim bosqichlari uchun tayanch bo'lishi kerak.

Bugungi kungacha o'zbek tili fanidan tuzilgan o'quv dasturlarida ta'limning kommunikativ-nutqiy yo'nalishiga mos ravishda kompetensiyaviy yondashuv asosida yildan yilga takomillashtirib kelindi.

Ta'lim bosqichlari uchun mavzularni taqsimlashda takrorlar, qaytariqlar bo'lmasligiga, bilimlarning osondan murakkabga qarab qanday o'stirib borishga jiddiy e'tibor qaratildi. Bugungi sharoitda yoshlarimizni bilimli, dono va har tomonlama yuksak salohiyatli etib tarbiyalashda boshlang'ich ta'limning ahamiyati kattadir. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar o'qish, yozish va hisoblashning eng oddiy usullarini o'rganibgina qolmasdan o'zi mustaqil tahlil qilishni o'rganishi lozim. PIRLS baholash dasturida faqatgina o'qish fani ahamiyatga ega emasligini, avvallo, biz o'qituvchilar to'g'ri tushunishimiz darkor. Chunki PIRLS xalqaro dasturini tanishtirishimizda kichik hikoyalardan foydalanmoqdamiz. Biz avvallo, o'quvchilarimizning matnni qay darajada tushunayotganligini tekshirishimiz uchun matematika fanidan foydalansak ham bo'laveradi. Chunki matematika fanida hisoblashning oddiy usullarini o'rganishganidan so'ng, mavzuga oid qisqa masalalar ham beriladi. O'quvchilar masalaning javobini topish uchun uning mohiyatini tushunish kerak. Masalada ishtirok etgan sonlarni bir-biriga qo'shib yoki ayirish orqali javobini topib bo'lmaydi, albatta. Shunday ekan o'quvchilar matnning mohiyatini tushunishiga majbur bo'ladi. PIRLS baholash dasturida ham aynan boshlang'ich sinf

³² Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishniig didaktik asoslari. Monografiya – Toshkent – 2005. 144b.

o‘quvchilarining matni tushinishi asosiy omildir. Matematika masalalari ham kichkina matn hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi masalaning mohiyatini tushunib, uning javobini ham topadi. Endi o‘quvchilarning ijodkorligini baholashga ham imkoniyat tug‘iladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga masalaning shartini o‘zgartirish vazifasini yuklaydi. Yoki masalada ishtirok etgan predmetlarning shaxsini, nomini o‘zgartirishni ham talab qiladi. Mana shunda o‘quvchi izlanadi. Shaxsni o‘rniga shaxsni va narsaning o‘rniga narsani qo‘yib ona tili fanidagi bilimlarini ham mustahkamlaydi. Chunki PIRLS xalqaro baholash dasturida qo‘llanilgan hikoyalarda voqealar aniq dalil bilan keltirilmagan. Masalan Frans Hohlerning “G‘aroyib tun” hikoyasini olaylik. Hikoyada Aninaning qanday qiz ekanligi aytib o‘tilmagan. Lekin matn yuzasidan berilgan savollarda esa qizning vaziyatdan chiqib ketish uchun qilgan harakatlariga qarab unga baho berish talab qilinadi. Mana shunday vaziyatlarda o‘quvchi topqir, izlanuvchan va ijodkor bo‘lish kerak.

Ona tili darslarida ham o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlab borishimiz uchun bir qancha imkoniyatlar mavjud. Ona tili darslarida chiroyli yozishni birinchi o‘ringa qo‘yamiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari birinchi sinfdan boshlab harflarni ko‘chirib yozishni o‘rganadi. Namunga qarab gaplar yozdiramiz. Ona tili darslarida ham ijodkorlikni talab qiladigan mashqlar mavjud. Masalan, 3-sinflar uchun berilgan mashqlarda chizma asosida gap tuzish topshirig‘i berilgan. Mana shunda o‘quvchi chizmaga mos keluvchi bir nechta so‘zlar topadi, so‘zlarni bir-biri bilan bog‘laydi. Rasm asosida matn tuzish mashg‘ulotlarida o‘quvchilar mavzuga oid so‘zlardan foydalanib hikoyalar tuzadilar. PIRLS xalqaro baholash dasturida keltirilgan hikoyalarda rasmlar ham juda katta ahamiyatga egadir. O‘quvchi hikoya uchun ishlangan rasmga beparvo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak. Rasmlar voqealarni ko‘z oldimizga keltirish uchun asos bo‘lib ximat qiladi.

“PIRLS xalqaro baholash dasturi uchun foydalanadigan hikoyalar barcha davlat o‘quvchilar uchun bir xil bo‘ladi. Unda foydalanilgan hikoyalarda keltirilgan shaxs, narsa, voqea-hodisalar va hayvonlar ham asosiy e‘tiborni

tortadi”³³. Shaxs va narsalar haqida ona tili, o‘qish va matematika darslarida tushuncha ega bo‘lib boradilar. Voqea-hodisalar va jonivorlar haqida esa “Atrofimidagi olam” va “Tabiatshunoslik” darslari orqali yangi bilimlarni berib borishni talab qiladi. Atrofimizdagi olam darslarida atrofmuhit haqida yangi bilimlar beramiz va bilimlarini mustahkamlaymiz. Tabiatshunoslik darslarida jonivorlarga to‘xtalib o‘tishimiz kerak. Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarni o‘rgatayotganda faqat darslikda keltirib o‘tilgan jonivorlarga to‘xtalmasdan ko‘proq qo‘shimcha ma’lumotlar berishga intilaylik. Faqatgina yurtimizda uchradigan qushlar, hayvonlar haqida emas, balki yovvoyi tabiat, bizda uchramaydigan qushlar haqida ham qo‘shimcha bilimlar berishimiz kerak. Chunki PIRLS xalqaro baholash dasturida keltirilgan hikoyalar barcha qatnashayotgan davlatlarning o‘quvchilari uchun tushinarli bo‘lishi va bir xil bo‘lishini yuqorida aytib o‘tdik. Ba’zi hikoyalarda bizning o‘quvchilarimiz uchun tushinarsiz yoki to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmagan narsa va hayvonlar keltirilgan bo‘lishi mumkin. Masalan, Frans Kafkaning “G‘aroyib tun” hikoyasida timsoh va flomingo qushlari ishtirok egan. Timsoh haqida biz ko‘p marta ma’lumot berganmiz yoki o‘quvchilarning o‘zi ham bilishi mumkin. Ertaklar orqali uni yovvoyi, go‘shxo‘r hayvon ekanligini biladi. Lekin flomingo esa ko‘pincha ham duch kelavermaydigan qush turi hisoblanadi. Ba’zan rasmlarini ko‘rib uni pushti rangli, raqqosa qush ekanligini bilib olishimiz mumkin. Lekin hamma o‘quvchilar ham biladi deb bo‘lmaydi. Mana shunday vaziyatlarda o‘quvchilarga vazifa tariqasida darslikdan tashqari topshiriqlar berib, ularni ko‘proq ma’lumotlar o‘rganib kelishlariga qiziqtirishimiz kerak.

Dars davomida o‘quvchilar o‘rganib kelgan ma’lumotlarini o‘quvchilar bilan muhokama qilsa, faqat birgina o‘quvchi emas boshqa o‘quvchilar ham ma’lumotga ega bo‘ladilar. Shunday ekan tabiatshunoslik darslarini keng, atroflicha, qo‘shimcha ma’lumotlarga boy tarzda o‘tishimiz kerak. Bu orqali

³³Abdurahim Nosirovning “O‘quvchilar bilimi va kompetensiyasi xalqaro mezonlar asosida baholanadi” nomli maqolasi.4-6 b.

o'quvchilarimizni boshqa davlatlardagi tengdoshlari qatorida bilimlar olishiga imkon yaratib beramiz.

Xalqaro tajribalarni o'rganish natijasida hozirgi kunda ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash bo'yicha bir qancha dasturlar yuritilib kelinmoqda. Bu dasturlar o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish, ularni erishgan yutuqlarini baholash bo'yicha mukammal tizim ishlab chiqishganligini ko'rishimiz mumkin. TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy maqsadi-boshlang'ich va o'rta maktablarda matematika va tabiiy ta'lim sifatini taqqoslash. To'rt yilda bir marta 4-8-sinf o'quvchilarining ta'lim yutuqlari, shu jumladan nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki predmetlarga bo'lgan munosabati, qiziqishlari va o'qish motivatsiyasi ham baholanadi. Tadqiqot har 4 yilda 4-sinf o'quvchilari, 8-sinf o'quvchilariga aylanganda qatnashuvchi mamlakatlarda matematika va tabiatshunoslik ta'limining tendensiyalarini kuzatish uchun mo'ljallangan. Shunday qilib, boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilarining ta'lim yutuqlari, shuningdek matematika va tabiiy fanlarda boshlang'ich maktabdan asosiy maktabga o'tish jarayonida yuz beradigan o'zgarishlar monitoringi amalga oshiriladi.

TIMSS dasturini ham jahon standartlariga moslashtirish maqsadida keyingi tadqiqot sikli hisoblangan TIMSS 2023 dan boshlab ushbu tadqiqotlar to'liq raqamli tarzda olib boriladi va ushbu tadqiqot sikli uchun yangi testlar tuzish rejalashtirilgan. TIMSS tadqiqotida matematika va tabiiy fanlardan to'rtinchi va sakkizinchi sinflar uchun eng yaxshi test topshiriqlarini tuzishga yordam berish maqsadida TIMSS & PIRLS xalqaro tadqiqot markazi tomonidan yo'riqnomalar ishlab chiqilgan. Yangi TIMSS tadqiqotlarida foydalaniladigan barcha test topshiriqlari TIMSS tadqiqotining yangi sikli uchun maxsus tuzilgan va boshqa tadqiqotlarda hech qachon ishlatilmagan bo'lishi zarur. Kelgusida qog'oz formatida ushbu tadqiqot olib borilmaydi va qog'oz formatdagi testlar uchun yangi test topshiriqlari tuzilmaydi.

TIMSS tadqiqotida test topshiriqlarining qiyinlik darajasini va o'quvchilarning qobiliyatini yaxshiroq aniqlash uchun tadqiqotning yangi siklida moslashtirilgan baholash dizayniga o'tiladi. Avvalgi baholashlarda to'rtinchi va

sakkizinchi sinflar uchun tuzilgan test topshiriqlari bir qator qiyinlik darajalariga ega bo'lgan, baholash davomida test topshiriqlarining qiyinlik darajasi o'rtacha 55% atrofida bo'lgan.

“TIMSS tadqiqotining yangi sikliga moslashtirilgan dizayn uchun yangi tuzilgan test topshiriqlari uchta qiyinlik darajasidan birida bo'lishi kerak: tadqiqot doirasida qiyin test topshiriqlarining qiyinlik darajasi 70%, o'rta test topshiriqlarining qiyinlik darajasi 55%, oson test topshiriqlarining qiyinlik darajasi 40 % ko'rsatkichini tashkil etishi kerak.2015-yilda IEA birinchi marta ta'lim sifati pastroq bo'lgan mamlakatlar uchun TIMSS Numerasy-ni taklif qildi. Bu 4 va 6-sinf o'quvchilari uchun matematik testlarning yengil versiyasi. Unda Bahrayn, Indoneziya, Eron, Kuvayt, Iordaniya, Marokash, Janubiy Afrika va Buenos-Ayres viloyati ishtirok etgan”³⁴.2015-yilda TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study), 4 va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-matematik tayyorgarlik darajasini baholash bo'yicha birinchi xalqaro tadqiqot o'zining 20 yilligini nishonladi. Olti sikl davomida dunyoning 80 ta ta'lim tizimlari ta'lim sifatining global monitoringida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Oltita tadqiqot siklida tabiiy va matematik ta'lim sifatidagi o'zgarishlarni aniqlash orqali dolzarb vazifalarini saqlab qolish ta'minlanadi. Shu bilan birga, jahon amaliyotining yangi ta'lim ustuvorliklarini hisobga olgan holda, TIMSS xalqaro testining mazmuniga ba'zi o'zgarishlar kiritildi.

Hozirgi kundagi Xalqaro baholash tashiloti (IEA) tomonidan tashkil etiladigan TIMSS dasturi bo'yicha o'quvchilar bilimni baholashni, kutilayotgan natijalarni hamda kelgusidagi istiqbollarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

³⁴Ibadullayev K.M. Ta'lim mazmuniga qo'yiladigan zamonaviy talablar (PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida). Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. №12, 2021, 194-199 b.

TIMSS dasturining asosiy uchta o'lchovi

Matematika	Tabiatshunoslik
Tarkibi	
Raqamlar O'lchov Geometriya Mutanosiblik Vazifalar, munosabatlar va tenglamalar Ma'lumotlarni taqdim etish, ehtimollik va Statistik ma'lumotlar Elementar tahlil Tasdiqlash va tuzilish	Yer haqidagi fanlar Hayotshunoslik Fizika fanlari Fan, texnika va matematika Fan va texnika tarixi Ekologik muammolar Ilmiy tabiat Ilmiy va boshqa fanlar
Kutilayotgan	natijalar
Bilim Muntazam protseduralardan foydalanish Muammolarni aniqlash va hal qilish Matematik asoslash Aloqa	Tushunish Nazariy tahlil va yechim Muammolar Keng tarqalgan vositalardan foydalanish Tabiat dunyosini o'rganish Aloqa
Istiqbollar	
Lavozim Ish faoliyati Ishtirok etish Qiziqishning ortishi Nostandart vaziyatlarda harakat qilish va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyati	Lavozim Ish faoliyati Ishtirok etish Qiziqishning ortishi Xavfsizlik Nostandart vaziyatlarda harakat qilish va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyati

2.2.1 jadval.TIMSS dasturining asosiy uchta o'Ichovi

TIMSS tadqiqotini xalqaro tasnifining ishlanmasiga asos qilib maxsus xujjat "TIMSS Assessment Frameworks and Specifications" olingan, unda turli yo'nalishlarga umumiy yondashgan xolda matematika va tabiiy fanlarga, testlarga va test topshiriqlariga tushuncha berilgan. Barcha yo'nalishlar bo'yicha baholash uchun har bir variantga matematika va tabiiy fanlardan savollar kiritilgan. Test jarayonida turli tipdagi topshiriqlar qo'llaniladi (qisqa, to'liq va mukammal javoblarni, amaliy topshiriqlarning javoblarini tanlagan holda...). Shuningdek, o'quvchi topshiriqni bajarayotganda o'rganish faoliyatining barcha turlarini namoyish etadi, so'rovnoma davomida olinayotgan ma'lumotlar o'quvchiga, o'qituvchiga va ta'lim muassasiga berilgan ta'riflarni ko'rsatadi.

1995 yilda xalqaro shkalalar 4-8-sinflarda o'rnatilgan. Tadqiqotda ishtirok etgan davlatlarning o'rtacha bali 500 ball deb hisobga olingan. Keyingi tadqiqot natijalari 1995 yilgi shkala bo'yicha o'rnatilmoqda, bu natijalarni solishtirishga va ularning o'zgarish tendensiyalarini aniqlashga yordam beradi.

4-8-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan baholashda test topshiriqlarning nazariyasidan foydalaniladi. Ushbu nazariya cheklangan miqdorda 60-70 tadan topshiriqlarni o'z ichiga olib, har bir davlatdan ishtirok etgan o'quvchining, o'qituvchining va ta'lim muassasasining ko'rsatkichlarini aniqlab beradi. Matematika va tabiiy fanlar natijalari 4-8-sinflarda alohida o'rganiladi va tahlil qilinadi. O'quvchilarining bilim, ko'nikma, malakalari darajasini aniqlashning global resursi jahonning eng ilg'or tajribasi asosida ishlab chiqilgan. TIMSS yordamida o'quvchilarning ta'limiy yutuqlari: bilish, qo'llash, mulohaza yuritish baholanadi. Xalqaro baholash tashiloti (IEA) tomonidan tashkil etiladigan TIMSS dasturi bo'yicha o'quvchilar bilimni baholashni xalqaro reytingini ishlab chiqish uchun ko'plab tajriba-sinov ishlari olib borilgan. Tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash natijasida har bir o'quvchiga matematikadan va tabiatshunoslik bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun alohida-alohida 1000 balli shkala bo'yicha ball beriladi.

2.2.2.jadval.

TIMSS xalqaro reyting shkalasi, maktab o‘quvchilarining matematik tayyorgarlik darajalarining tavsifi

	4-sinf	8-sinf
Ilg‘or 625 yoki undan ko‘p	murakkab vazifalar va harakatlar algoritmini tushuntirish; vaziyatli masalalarni echishda mulohaza yuritish; ba‘zi tekis va fazoviy figuralar to‘g‘risida geometrik bilim; oddiy va o‘nli kasrlarni tushunish.	nostandart vazifalarni umumlashtirish va hal qilish; turli xil vazifalarni hal qilish (munosabatlar, nisbat va foizlar); taklif qilingan vaziyatning algebraik modelini tuzish; geometriya bo‘yicha qiyin vazifalarni hal qilish uchun bilimlarni qo‘llash.
Yuqori 550 - 624 ball	ko‘p bosqichli matnli vazifalarini bajarish; oddiy kasrlarni yozishda raqamlarning tub qiymatini tushunish; berilgan juft sonlar	bilimlarni ancha qiyin vaziyatlarda qo‘llash; oddiy va o‘nlik kasrlar va foizlar bilan aloqalarni o‘rnatish va hisob-kitoblarni amalga oshirish;
	orasidagi bog‘liqlikni aniqlash qobiliyati; ma’lumotlarni sharhlash va ulardan foydalanish (jadvallar, jadvallar va grafikalar).	manfiy butun sonlar bilan amallarni bajarish; algebraik ifodalar va chiziqli tenglamalar bilan ishlash; ma’lumotlarni sharhlash (grafik va jadvallarda); oddiy muammolarni hal qilish (hodisalar ehtimoli)

O'rtacha 475- 549 ball	oddiy vaziyatlarda asosiy matematik bilimlarni qo'llash; oddiy sonli ketmaketliklar va geometrik shakllarning ketma-ketligini davom ettirish; bir xil ma'lumotlarni o'qish va sharhlash.	asosiy matematik bilimlarni qo'llash; bir bosqichli so'z masalalarini echish uchun butun sonlarni va o'nli kasrlarni qo'shish va ko'paytirishni amalga oshirish; tanish oddiy kasrlar bilan ishlash; o'zining asosiy geometrik tushunchalari; o'qish va izohlash (jadvallar, grafikalar).
Past 400 - 474 ball	ba'zi bir asosiy bilimlar; natural sonlarni qo'shish va ayirishni tushunish; oddiy geometrik shakllar haqida dastlabki bilimlar; oddiy chiziqli diagrammalar va jadvallar.	- natural sonlar, kasrlar, o'nli kasrlar va ular bilan amallar, standart grafikalar va diagrammalar to'g'risida ba'zi bilimlarni bilish.

2.2.2.jadval.TIMSS xalqaro reyting shkalasi, maktab o'quvchilarining matematik tayyorgarlik darajalarining tavsifi

TIMSS tadqiqoti to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQSHning Ta'lim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari tashkil etiladi. Mamlakatimizda ham TIMSS xalqaro monitoring

tadqiqotiga bosqichma-bosqich qadam qo'yilmoqda. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilayotgan tashqi monitoring jarayonida ushbu xalqaro baholash materiallaridan qisman foydalanish orqali o'quvchilar xalqaro talab darajasiga o'rgatib borilmoqda. Xalq ta'limi vazirligi va YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida "O'quvchilarning muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash" mavzusida tadqiqot o'tkazildi. Unda respublika bo'yicha tanlab olingan 255 ta maktabda tahsil olayotgan 4-sinf o'quvchilarining matematika, o'qish va tabiatshunoslik fanidan bilimi tajriba tariqasida sinovdan o'tkazildi. Monitoring uchun TIMSS tadqiqoti materiallari mazmuni, talabidan kelib chiqib, test savollari tayyorlandi. Test sinovi materiallari YUNISEF tashkiloti bilan hamkorlikda umumlashtirilib, tahlil qilinmoqda.

TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida berilayotgan didaktik topshiriqlarni bajarish metodlarini o'quvchilarga o'rgatishdan oldin dasturning qamrov doirasi haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish zarur. Dasturning baholash mezonlari murakkab bo'lganligi bois uni to'liq va to'g'ri tushunib olish muhim hisoblanadi. Dasturning fanga oid sohalarni baholashga mo'ljallangan mazmun sohasi hamda fikrlash jarayonlarini baholashga mo'ljallangan kognitiv sohasi haqida to'liq ma'lumotlar bilan tanishib chiqilgach dastur doirasida berilyotgan didaktik topshiriqlarni bajarish metodlarini o'quvchilarga o'rgatilsa yuqori natijalarga erishish mumkin.

TIMSS tadqiqoti doirasida matematika baholash qamrov doirasi har bir mazmun sohasidagi mavzularni qamrab oladigan savollarning taxminan 85 foizini muammolarni hal qilish kontekstida joylashtirish kerakligini belgilaydi. Bu qamrov doirasining boshqa jihatlariga mos keladi va muammolarni hal qilish TIMSS matematikasining asosiy maqsadi ekanligi va ma'lum mavzular bilan bog'liqligini aniqlaydi. Shuningdek, baholashning barcha savollari kognitiv sohalar: bilish, qo'llash yoki mulohaza yuritish bo'yicha tasniflanadi. Kontekstda muammolarni hal qilishda 60 dan 65 foizgacha savollar qo'llash va mulohaza yuritishni talab qiladigan savollar hisoblanadi.

TIMSS “Matematika – to‘rtinchi sinf” tarkibidagi mazmun sohalar va ularning har biriga ajratilgan baholash ballarining maqsadli foizlarini ko‘rsatadi. Har bir mazmun soha bo‘limlardan iborat bo‘lib, har bir bo‘lim o‘z navbatida bir nechta mavzularni o‘z ichiga oladi. To‘rtinchi sinf matematikasini baholashda har bir mavzu taxminan teng taqsimlangan.

PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnini o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi orqali o‘quvchilarimizning boshqa davlatlardagi tengdoshlari bilan bilimlarini taqqoslash imkoniyatini yaratib bermoqda. Tadqiqotga qatnashish bizdan juda katta ma’suliyatni talab qilmoqda. Bu dasturda o‘z-o‘zidan shu narsa ma’lum bo‘lib turibdiki, faqat o‘quvchining bilimi taqqoslanmaydi, balki o‘qituvchilarning bilim berish saviyasi ham taqqoslanadi.

2.3.Xorijiy tajribalar asosida milliy ta’lim dasturlarni loyihalashning shakl, metod va vositalari

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish uchun kuzatish, aqliy hujum, suhbat va so‘rovnomalar o‘tkazish, tajriba-sinov, ularni tahlil qilish, umumlashtirish kabi tadqiqot metodlari qo‘llaniladi. Mavzularni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish juda muhim hisoblanadi va uni to‘laqonli o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa kompyuter texnologiyasini qo‘llab o‘qitish samarali hisoblanadi.

Pedagogik-psixologik jihatdan N.A.Barikova loyiha metodini ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan usuli bo‘lib, o‘quvchilarning o‘z ustida mustaqil ishlashi va bilim olishi orqali muammolarni yechishiga hamda amaliy xulosaga kelishiga yordam beradi, deb tushuntiradi.”³⁵ Jamoaviy loyiha har bir o‘quvchini jalb qilishi, faoliyatni amalga oshirishda vaqtning ko‘p talab qilinishi bilan murakkablik va qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etishda biz quyidagi mexanizmni amalga oshirishni tavsiya qilamiz:

³⁵Барыкова Н.А. “Метод проектов” и его возможности//Материалы XII конференции-выставки “Информационные технологии в образовании” [Электронный ресурс]. URL: <http://www.ito.Su/2002/I/2A-2532.html>. Загл. с экрана.

1.O‘rganuvchilar guruhi. O‘tilgan mavzularni mustahkamlash, takrorlash yoki umumlashtirish maqsadida darsdan tashqari vaqtda tashkil etiladi. Ushbu guruhga bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga faol o‘quvchilar birlashtiriladi. “O‘rganishdan-o‘rgatishgacha” tamoyili asosida guruh a'zolariga mavzular taqsimlanadi.

2.Tahlillash guruhi. O‘qituvchi umumlashtiruvchi mavzulardan yoki nazorat ishlaridan oldin o‘quvchilarning umumiy bilim darajasini aniqlash maqsadida sinfni 4-5 kishidan iborat kichik guruhlariga taqsimlaydi hamda imtihon yoki umumlashtiruvchi mavzu topshiriqlarini bajarish yuzasidan ularning hamkorlikdagi ishlarini baholaydi.

3.O‘z-o‘zini rivojlantirish guruhi. Bunday guruhlarda o‘zlashtirishi sustroq o‘quvchilar jamoaning fikrini eshitishi, fikrlarini umumlashtirishi natijasida o‘ziga berilgan topshiriqlarini yanada aniqroq bajarish imkoniga ega bo‘ladilar. Ushbu faoliyat so‘ngida mavzuni tushunadi, o‘zlashtiradi, o‘ziga berilgan topshiriqni bajara oladi, bilmasliklarini o‘rganish natijasida bilishga bo‘lgan ishtiyoqi ortadi.

4.Yosh tadqiqotchilar guruhi. Ushbu faoliyatni amalga oshirishda kichik guruhlarda topshiriqlar bajariladi. Yakuniy tahlillar va natijalar umumjamoaga e‘tiboriga havola qilinadi. Loyiha ishtirokchilari o‘zaro bir-birlarining topshiriqni qay tarzda bajarganligini baholaydilar. Ushbu faoliyat natijasida har bir guruh a'zosining umumjamoaviy tarzda topshiriqni bajarishi uchun qo‘shgan hissasi belgilanadi.

Tadqiqot tahlillariga tayangan holda biz topshiriqlarni bajarishga qaratilgan loyihani amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqdik (2.3.1-jadval).

2.3.1-jadval

Topshiriqlarni bajarishga qaratilgan loyihaviy ta'lim mexanizmi

№	Yangi ma'lumotni o'rganish bosqichi	Loyiha ustida ishlash bosqichlari	Mashg'ulotni tashkil etish shakllari
1.	Motivatsiya maqsadini aniqlash	1. Maqsadni belgilash	Hikoya, suhbat, ma'ruza va h.k.
2.	Rejalashtirish	2.Takliflarni muhokama qilish	Suhbat

3.	Harakat yo‘nalishini belgilash	3. O‘z-o‘zini o‘qitish 4. Faoliyat yo‘nalishlarini belgilash	Mustaqil ish
4.	Faoliyat turi	5. Izlanish 6. Tahlillash 7. Qiyoslash	Mustaqil ish, amaliyot, ekskursiya, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishi
5.	Refleksiya	8. Umumlashtirish va yakunlash 9. O‘zini o‘zi nazorat qilish	Seminar, suhbat
6.	Baholash	10. Muvaffaqiyat va kamchiliklarni tahlil qilish	Suhbat
7.	Korreksiya (xatolar ustida ishlash)	11. Korreksiya (xatolar ustida ishlash)	Suhbat

2.3.1-jadval. Topshiriqlarni bajarishga qaratilgan loyihaviy ta'lim mexanizmi

Yuqorida keltirilgan tadqiqot tahlillari xorijiy tajribalar asosida ta'lim dasturlarini loyihalashning quyidagi tashkiliy tuzilmalarini alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

1. Loyiha faoliyatining mazmunini to'liq anglash.
2. Loyiha tuzish.
3. Loyiha obyekti va faoliyat turini belgilash.
4. Natijalarni taqdim qilish.
5. Refleksiv tahlillash.
6. Xulosa.

Biz tadqiqot jarayonida o'quvchining loyiha jarayonida qatnashishi natijasida ega bo'ladigan xususiyatlari va xislatlarini aniqlashtirdik (2.3.2-jadval).

**Umumiy o'rta ta'limda xorijiy tajribalar asosidagi loyihaviy ta'limning
asosiy xususiyatlari**

№	Xususiyatlari	Asosiy belgilari
1.	O'rganish	<ul style="list-style-type: none"> - tajribadan xulosa chiqarishga o'rganadi; - muammoni hal etishning yo'llarini topishni o'rganadi; - o'z bilimlarini umumlashtirishni o'rganadi; - o'z-o'zini o'qitishni o'rganadi; - ta'lim olishning shaxsiy usul va vositalariga ega bo'ladi
2.	Izlash	<ul style="list-style-type: none"> - ma'lumotlar bazasidan foydalanadi; - atrofdegilar fikrini tahlil qiladi; - mutaxassislardan maslahat oladi; - ma'lumotlar bilan ishlay oladi.
3.	O'ylash	<ul style="list-style-type: none"> - axborotga tanqidiy yondashadi; - voqealarni bir-biriga bog'laydi; - qiyinchiliklarni yengadi; - munozaralarda o'z fikrini bayon qila oladi; - vaziyatlarga baho bera oladi.
4.	Hamkorlik qilish	<ul style="list-style-type: none"> - jamoada ishlay oladi; - hamkorlikda qarorlar qabul qila oladi; - kelishmovchiliklarni bartaraf qiladi;
5.	Ishga kirishish	<ul style="list-style-type: none"> - loyihaga qo'shiladi; - zarur sharoitda mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, liderlik pozitsiyasini egallaydi; - jamoaga o'z hissasini qo'shadi; - hamjihatlikda ishni tashkil qila oladi;
6.	Moslashish	<ul style="list-style-type: none"> - axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana oladi; - tezkor o'zgarishlar oldida moslashuvchanlik qobiliyatlarini ko'rsata oladi; - qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi; - tez va to'g'ri yechim topa oladi.

2.3.2-jadval. Umumiy o'rta ta'limda loyiha ta'limining asosiy xususiyatlari

Ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda qatnashish maktab o'quvchilariga umumiy va mukammal bilim berish bilan bir qatorda, ularda mustaqil ishlash tajribasini ham shakllantiradi. Loyiha jarayonida turli tashkilotlarning ishtirok etishi avvalo ularning innovatsion g'oyalarga daxldorligi bilan ahamiyatga ega. Bu jarayonda loyiha faoliyatiga jalb qilingan tashkilotlarning barchasini

birlashtiradigan, ularning umumiy qiziqishlarini ifoda etadigan zamonaviy yondashuviga murojaat qilish maqsadga muvofiq deb topilgan. Ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlashda quyidagi shartlarning bajarilishi muhim ahamiyatga ega:

1) "o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ta'lim amaliyotida faol qo'llanilishi;

2) rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lish"³⁶.

Ta'lim dasrurlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashtirishda pedagogik texnologiyadagi yetakchi hisoblangan ta'lim maqsadi, mazmunini loyihalash eng muhim muammolardan biri bo'lib qoladi. Ularni quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

- "o'quv predmetlarini o'rganishda, eng avvalo, tayanch tushunchalarni o'rganish darajasini aniqlash va ularni o'rganishni loyihalash;

- tayanch tushunchalarning ta'lim standartlari, o'quv dasturlariga mosligi, o'quvchining kelgusi faoliyati bilan aloqadorligini loyihalash;

- o'qitish uslublarini loyihalash;

- o'quvchining tayyorgarlik darajasini loyihalash;

- o'qitish mazmunining qo'yilgan maqsad bilan uzviyligini ta'minlash;

- ta'lim uslublarini, ularning qaysi birini darsning qaysi bosqichida qo'llash zarurligini oldindan loyihalash;

- turli tipdagi darslarda bilim va ko'nikmalarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini loyihalash;

- o'qitish jarayonida nazorat va tekshirishning turli usullaridan foydalanishni loyihalash"³⁷.

³⁶ A.A.Ismailov, D.Norboyeva, K.Kucharova, Z.Kosimova, N.Aminova "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanma, «Sharq» nashriyoti, Toshkent, 2019-yil.146-b.

³⁷A.A.Ismailov, X.J.Daminov, Z.A.Kosimova, G.A.Primov, "PISA Xalqaro tadqiqotida o'quvchilarning Kreativ fikrlashini baholash" qo'llanma, "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi", Toshkent, 2021- yil. 89-b

2.3.1-chizma.

Xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarni loyihalash texnologiyasi

Metod va usullar	Suhbat, kuzatish, tushuntirish, o'z-o'zini tahlil qilish, ishontirish, o'z-o'zini boshqarish, maslahat, jonli muloqot, pedagogik talab. Muammoli tavsifdagi suhbat, munozara, o'z-o'zini baholash, empatiya, matn bilan ishlash, aqliy hujum, bahs munozara, dialog, o'yinli metodlar, aniq vaziyatlarni tahlil etish, "Qadriyatga yo'nalganlikni aniqlash", "Qarorlar qabul qilish", "Kelishuv va ziddiyat", "Mulohaza, sabab, misol va umumlashtirish" metodikalari.
Shakllari	Individual, kichik va guruhli mashg'ulotlar, sinf va darsdan tashqari mashg'ulotlar, fan to'garaklari, tanlovlar, mustaqil ish topshiriqlari, turli tadbirlar. Xilma-xil draslarda ishtirok etish va o'quv faoliyati nuqtai nazaridan hadislarni tahlil qilish va tahlil qila olish malakalarini egallash.
Vositalar	O'quv materiallari, darsliklar, hadislarga doir kitob va qo'llanmalar, o'qituvchi nutqi, hamkorlikdagi amaliy faoliyat.

2.3.1-chizma. Xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarni loyihalash texnologiyasi

O'qitilayotgan mavzuning harakterini hamma vaqt sinfda ochib bo'lmaydi. Bu holda nima qilish kerakg' Ekskursiya metodidan foydalanish mumkin. Mavzuni ekskursiya usuli bilan ham ko'rsatish mumkin. Bu usulda o'rganilayotgan narsa hodisalarni tabiiy sharoitda zavod, fabrika, tabiatda, muzey, ko'rgazmalarda tashkiliy ravishda ko'rsatiladi. Agar ko'rsatilayotgan joyda o'tilayotgan mavzu mazmunini keng ochib berish imkoni bo'lsa, buni o'qituvchi oldindan borib kuzatib keyin O'quvchilarni olib boradi, ekskursiya usulidan foydalanadi, O'quvchilar ekskursiya davomida obekt ustidan ma'lumotlarni eshitish yoki kuzatish bilan chegaralanmasdan zarur materiallarni yozib oladilar, rasmini chizadilar, o'lchash, hisoblash ishlarini olib boradilar. O'qituvchi ekskursiya oxirida mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqaradi va mashg'ulotni

yakunlaydi. Mashq davomida ilgari egallangan bilim, ko'nikma, malakalar, qonunlar faoliyatga tatbiq etiladi. Ta'lim maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo'lida ta'lim vositalaridan foydalaniladi. Kompyuter, multimedia, kodaskop, filmskop, logorifm lineykasi, sirkul, apparat turlari - bular jumlasiga kiradi. Ko'rgazmali qurollardan (illyustatsiya, video va boshq.) foydalanish xam vositani samarali qabul qilishga va tushunishga yordam beradi.

Tushuntirish-bayon qilinayotgan vositani turli xolatlarini taxlil qilish, tushuntirish, izoh berish va isbotlash yordamida o'quv vositani bayon qilish. Agar o'qituvchi quyidagi didaktik masalalarni yechmoqchi bo'lsa, bu usullar birgalikda bilimni mantiqiy, tartibli, tushunarli, his-hayajonli qilib yetkazish uchun qo'llaniladi: tushuntirish, tasvirlash, eslash, sanash; toifalar bo'yicha taqsimlash; ta'riflab berish; baholash; motivlashtirish (mavzu, sabab, dalil) va x.k.

Namoyish – o'quvchilarni tabiiy xolatda xodisalar, jarayonlar, ob'ektlar bilan ko'rgazmali-hissiy tanishtirish. Bu usulning yetakchi vazifasi-o'qitish. Doskada soddagina ko'rinishi yoki sxemalar chizish tarzida (tushunishni yengillashtiradi). Namoyish natijasida ma'lumotlar o'quvchilar ongiga to'laroq, osonroq va tezroq singadi. Buning uchun: ob'ektlarni to'g'ri tanlash; o'quvchilar diqqatini namoyish qilinayotgan xodisalarning muxim taraflariga yo'naltirish; namoyish jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, o'quvchilar namoyish qilinayotgan ob'ektlarni nafaqat ko'z bilan ko'ra bilishlari, iloji bo'lsa, ularni barcha sezish a'zolari bilan qabul qilishlari lozim; o'quvchilarga ob'ektning o'rganilayotgan sifatlarini mustaqil o'lchash imkonini yaratish.

Munozara – faol ta'lim usuli bo'lib muxokama, ma'lum muammo bo'yicha fikr almashinuv ko'rinishida o'tadi. Munozara usuli barcha funksiyalarni bajaradi. Ushbu usuldan, quyidagi maqsadlar uchun foydalanamiz: yangi bilimlarni shakllantirish; o'quvchilarda u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rish, tub ma'nosiga yetishga motivatsiyani ta'minlash; o'quvchilarga dalil va dalilga asoslangan xulosa orasidagi farqni tushunib yetishni o'rgatish; kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchilarga o'z fikrida mustaxkam turish va uni ximoya qilishga yordam berish. Munozara rivojlanishi mumkin, qachonki: erkin

munozara bo'lsa; yoki biror yo'nalishda – boshqariladigan munozara bo'lsa. Miyaga xujum (breynstorming) - g'oyalarni generatsiya qilish usuli. Qatnashchilar birlashgan xolda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar: uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarini ilgari suradilar (generatsiya qiladilar). Bu usul barcha funksiyalarni bajaradi: lekin uning asosiy vazifasi– muammoni mustaqil tushunish va yechishga ta'lim oluvchilarni motivatsiyasini uyg'otish. Pinbord (inglizchadan: pin-mustaxkamlash; board-doska). Bu o'qitish usulining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik munozara olib borish funksiyalari – rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: o'quvchilarda muloqat yuritish va madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish maxorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

Muammoli vazifalar usuli. Muammoli vazifalar usuli–o'quvchilarga muammoli vaziyatlarni va ularning faol bilish faoliyatini tashkil etishga asoslangan usuldir. U, aniq vaziyatlarni taxlil qilishi, baxolashi va keyinchalik qaror qabul qilishidan iboratdir.

Ta'limni samarali tashkil etish, uning dars, ma'ruza va boshqa shakllaridan o'qitish jarayonida o'rinli foydalanishlari uchun shubhasiz, o'qituvchining pedagogik mahorati, pedagogik madaniyati, o'z predmetini puxta bilishligi va o'quvchilar bilan umumiy til topa olishligi g'oyat katta ahamiyatga egadir. Ma'lumki, “verbal (og'zaki) o'quv usullaridan foydalanilganda (ma'ruza, hikoya, tushuntirish) o'quvchilar ma'lumotning 5%ini eslab qolishadi. O'qish ma'lumotning 10%ini saqlab qolishga imkon beradi, videofilm, rasm, ko'rgazmali qurollarni ko'rish, ko'rgan ma'lumotlarni 20%ini o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Ta'lim dasrurlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalash usuli va ishbilarmonlik o'yini eng samarali hisoblanadi, buning natijasida o'quvchilar ongida ma'lumotning 75% i saqlanib qoladi. O'quv-amaliy mashg'ulotlarning o'quvchilar tomonidan olib borilishi undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90% ma'lumot o'zlashtiriladi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Ushbu bob yuzasidan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jahon tajribalarini o'rganish orqali o'quvchilar bilimlarini samarali baholash hamda ularni bilimlarini nazoratini zamonaviy vositalar orqali nazoratini tashkil etish ta'lim tizimini rivojlantirish uchun ahamiyatli hisoblanar ekan. Finlandiya ta'lim tizimi maktabgacha ta'limdan oliy ta'limga qadar barcha bosqichlarda talabalar uchun to'liq bepul ta'lim olishlarini ta'minlaydi. Finlandiya tajribasini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashga oid samarali tavsiyalar ishlab chiqildi. Buning uchun me'yoriy-huquqiy baza yaratilmoqda. Umuman olganda mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta'lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki natijasida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kutilmoqda:

- "olingan tadqiqot natijalari mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rnini to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi;

- milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi;

- xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi;

- Bugungi kunda zamonaviy maktablarning xalqaro standartlarga raqobatbardoshligini oshirish maqsadida PISA, PIRLS, TIMMS kabi yuqori darajada e'tirof etilayotgan baholash dasturlari talablari asosida o'quv jarayonini tashkil etish zarurati tug'ilmoqda. Bu borada mamlakatimizda milliy o'qitish tizimini isloh etish maqsadida umumta'lim fanlaridan Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlari, yangi avlod darsliklarini zamonaviy talablar asosida yaratish ishlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot tahlillari xorijiy tajribalar asosida ta'lim dasturlarini loyihalashning quyidagi tashkiliy tuzilmalarini alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

1. Loyiha faoliyatining mazmunini to'liq anglash.
2. Loyiha tuzish.
3. Loyiha obyekti va faoliyat turini belgilash.
4. Natijalarni taqdim qilish.
5. Refleksiv tahlillash.
6. Xulosa.

Ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalash usuli va ishbilarmonlik o'yini eng samarali hisoblanadi, buning natijasida o'quvchilar ongida ma'lumotning 75% i saqlanib qoladi. O'quv-amaliy mashg'ulotlarning o'quvchilar tomonidan olib borilishi undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90% ma'lumot o'zlashtiriladi.

III.BOB.XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA MILLIY DASTURLARNI LOYIHALASHGA DOIR TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI

3.1.Xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarini loyihalashga oid tajriba-sinov ishlarining mazmuni

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan asosiy maqsad– umumiy o`rta ta`lim muassasalarida o`qituvchilarning milliy ta`lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalash omillari, ularda zamonaviy yondashuvlar asosida milliy ta`lim dasturlarimizni loyihalashni ta`minlovchi, tavsiya etilgan xorijiy tajribalardan samarali foydalanish mezonlarini aniqlashdan iborat etib belgilandi.

Belgilangan maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar ijobiy hal etildi:

1. Umumiy o`rta maktablaridagi ta`limi faoliyati mazmunini yorituvchi o`quv-me`yoriy hujjatlarni (davlat ta`lim standarti, o`quv reja, fan dasturlari, ma`naviy-marifiy tadbirlar dasturi va h.k) o`rganish asosida o`qituvchilarning xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash omillari bo`yicha nazariy ma`lumotlarni o`rganish va umumlashtirish.

2. Umumiy o`rta ta`lim muassasalarida o`qituvchilarni xorijiy tajribalar asosida milliy ta`lim dasturlarini loyihalashga texnologiyasi ishlab chiqildi, texnologiyaning har bir bosqichida qo`llaniladigan shakl, metod va vositalar aniqlashtirildi.

3. Suhbat va anketa so`rovnomalari yordamida o`qituvchilarda “milliy dasturlarni loyihalash” tushunchasining shakllanganlik darajasi, ularda o`quv motivatsiyasining rivojlanganlik darajasi, ta`lim muassasasi faoliyatining diagnostikasi, ta`lim muassasasi o`qituvchilarida milliy ta`lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashni shakllantirish borasidagi nazariy bilimlari aniqlashtirildi.

4. Umumiy o`rta ta`lim muassasalari xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash texnologiyasining mazmun-mohiyatini o`rganildi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

1.Asoslovchi tajriba bosqichida umumiy o`rta ta`lim muassasalari xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashning mavjud holatini aniqlashga

yo'naltirilgan pedagogik faoliyat tashkil etildi. Ko'zda tutilgan maqsadga erishishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars o'tayotgan o'qituvchilarning faoliyatini pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so'rovlari, shuningdek, o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlar mohiyatini yorituvchi hujjatlarni o'rganish kabi metodlardan foydalanildi. Bularning barchasi tadqiqotning asosiy yo'nalishi va dasturini muayyan darajada aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot mavzusiga oid etakchi olimlar, pedagoglarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishining 1-bosqichi amalga oshirildi.

2.Shakllantiruvchi tajriba bosqichida milliy ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalash texnologiyasi hamda mazkur texnologiya asosida ishlab chiqilgan maxsus dasturlarga binoan amaliy-metodik faoliyat tashkil etildi. Bunda o'qituvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida amaliy treninglarni tashkil etish, hamkorlikda o'qitish, suhbat va anketa so'rovi kabi metodlar yordamida milliy ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashning metodok ta'minotiga qaratildi. Nazariy tadqiqotlar natijasida aniqlangan ilmiy echimlar modulli ishlanmalar yaratishda amaliy qo'llanildi, hamda ular asosida tajriba-sinov mashg'ulotlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar qatorida milliy ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashning metodok ta'minotida muhim o'rin tutuvchi blok-modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilishga erishildi. Tajriba-sinov ishining 2-bosqichi amalga oshirildi.

3.Ta'kidlovchi tajriba bosqichida real hayotiy va pedagogik vaziyatli topshiriqlar metodiga tayangan holda magistrant tomonidan tavsiya etilayotgan metodikaning samaradorligi, shuningdek, xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalashga yo'naltirish omillarining holati aniqlandi. O'qituvchilarni xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalash omillarini baholash uchun mezonlar ishlab chiqildi. Shakllantiruvchi tajriba-sinov mashg'ulotlari o'tkazildi, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq etildi. Tajriba-sinov ishining yakunlovchi bosqichi amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatli kechishi quyidagi ob'ektiv va sub'ektiv omillarning mavjudligi hisobiga ta'minlandi:

1) xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalashga qaratilgan metodik shart-sharoitlarning yaratilganligi;

2) umumiy o'rta ta'lim maktablarining etarli ta'lim dasturlariga egaligi;

3) o'quv va tarbiyaviy ishlar jarayonida zamonaviy texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish;

4) o'quvchi-yoshlarning mustaqil ta'lim olishlariga alohida e'tiborning qaratilganligi;

5) milliy ta'lim dasturlarini xorijiy tajribalar asosida loyihalashga nisbatan tizimli yondoshuvning qaror topganligi.

Tajriba-sinov ishlari 2022-2023, 2023-2024 o'quv yillari mobaynida amalga oshirilib, unga 185 nafar respondent jalb etildi. Tadqiqotning asosiy tajriba-sinov ishlari Surxondaryo viloyatining Termiz shahridagi 1-,8-sonli hamda Angor tumanidagi 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirildi. Muammoning alohida jihatlarini tadqiq qilishda tajriba-sinov uchun respondent sifatida tanlangan o'quvchilar jalb etildi.

Tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash maqsadida respondentlar tajriba (98 ta o'qituvchi) va nazorat (87 ta o'qituvchi) guruhlariga birlashtirildilar. Tajriba guruhida magistrant tomonidan tavsiya etilayotgan hamda xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashni ta'minlashga yordam beruvchi texnologiya asosida amaliy faoliyat yo'lga qo'yilgan bo'lsa, nazorat guruhlarida esa an'anaviy tartibda o'quv-tarbiya ishlari olib borildi.

Tadqiqotni amalga oshirish davrida tajriba-sinovdan o'tkaziladigan maxsus metodikani shakllantirish muhim jarayon bo'ldi. Dissertatsiyada, xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni (umumiy o'rta ta'lim muassasalarida) loyihalash texnologiyasini yaratishga qaratilgan pedagogik faoliyat quyidagi metod va usullar asosida tashkil qilinishi ko'rsatilgan: anketa savollari, kuzatish, suhbatlar, nazorat (test), pedagogik tajriba. Pedagogik kuzatuv usulidan umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish, unda

o'qituvchilarning o'quv-tarbiya jarayonini xorijiy tajribalar asosida olib borishni rivojlantiruvchi vositalarni umumlashtirishda va tajriba-sinov ishlarini boshidagi va yakunidagi ko'rsatkichlar orasidagi farqlarni solishtirishda foydalanildi. Suhbatlar o'tkazish usulidan esa o'qituvchilarning dars jarayonida xorijiy tajribalardan foydalana olish ko'nikma va malakalari darajasini aniqlashda foydalanildi. Pedagogik tajriba usuli xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni (umumiy o'rta ta'lim muassasalarida) loyihalash texnologiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish, tanlab olingan maqsad uchun mavjud shart-sharoitlarning talabga javob berish darajasini aniqlash hamda maktabda o'tiladigan fanlardan o'zlashtiriladigan mavzularga oid yaratilgan milliy dasturlarning xorijiy tajribalardan foydalanishdagi samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llanildi.

Suhbat, savol-javob, pedagogik kuzatish va test metodlari yordamida umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarining xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash ko'nikmasiga egalik darajasi baholandi.

Pedagogikada mavjud mezonlarni takomillashtirish asosida o'qituvchilarning milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalash ko'nikmasini egallaganliklarining quyidagi uchta darajalari mazmuni ishlab chiqildi:

1.Yuqori daraja: xorijiy tajriba, ta'lim mazmun, Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, PISA,PIRLS,TIMSS VA STEAM kabi xalqaro baholash dasturlari, milliy dasturlar, loyihalash texnologiyasi, loyihalashning texnik, texnologik, didaktik va ijodiy imkoniyatlari, shuningdek, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash faoliyati, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash jarayoni, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash madaniyati, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash texnologiyasini rivojlantirish yo'llari, shakllari, metodlari, vositalari, usullari kabi ma'lumotlardan to'la xabardor; xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni (umumiy o'rta ta'lim muassasalarida) loyihalash texnologiyasining zamonaviy sharoitda ijtimoiy subektlar hayotida tutgan o'rni, roli va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojini ta'minlashdagi ahamiyatini to'la anglaydi; milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida

loyihalashni o'zlashtirishga faol intiladi; milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash texnologiyasi haqida ma'lumotga (eruditsiya, ijodkorlik, tasavvurning boyligi, intuitsiya, emotsional rivojlanganlik, mantiqiy fikrlash qobiliyati, texnik, texnologik, kreativ va refleksiv qobiliyatlar) egalikni yaqqol namoyon qila oladi.

2.O'rta daraja: xorijiy tajriba, ta'lim mazmun, Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, PISA,PIRLS,TIMSS VA STEAM kabi xalqaro baholash dasturlari, milliy dasturlar, loyihalash texnologiyasi, loyihalashning texnik, texnologik, didaktik va ijodiy imkoniyatlari, shuningdek, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash faoliyati, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash jarayoni, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash madaniyati, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash texnologiyasini rivojlantirish yo'llari, shakllari, metodlari, vositalari, usullari kabi ma'lumotlardan to'la xabardor; xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni (umumiy o'rta ta'lim muassasalarida) loyihalash texnologiyasining zamonaviy sharoitda ijtimoiy subektlar hayotida tutgan o'rni, roli va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojini ta'minlashdagi ahamiyatini to'la anglaydi; milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalashni o'zlashtirishga faol intiladi; milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash texnologiyasi haqida ma'lumotga (eruditsiya, ijodkorlik, tasavvurning boyligi, intuitsiya, emotsional rivojlanganlik, mantiqiy fikrlash qobiliyati, texnik, texnologik, kreativ va refleksiv qobiliyatlar) ega emasligi yaqqol namoyon bo'ldi.

3.Past darajada: xorijiy tajriba, ta'lim mazmun, Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, PISA, PIRLS,TIMSS VA STEAM kabi xalqaro baholash dasturlari, milliy dasturlar, loyihalash texnologiyasi, loyihalashning texnik, texnologik, didaktik va ijodiy imkoniyatlari, shuningdek, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash faoliyati, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash jarayoni, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash madaniyati, milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash texnologiyasini rivojlantirish yo'llari, shakllari, metodlari, vositalari, usullari kabi ma'lumotlardan to'la xabardor; xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni (umumiy o'rta ta'lim muassasalarida) loyihalash texnologiyasining zamonaviy sharoitda ijtimoiy subektlar hayotida

tutgan o'рни, roli va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojini ta'minlashdagi ahamiyatini to'la anglaydi; milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalashni o'zlashtirishga faol intiladi; milliy dasturlarni xorijiy tajriba asosida loyihalash texnologiyasi haqida ma'lumotga (eruditsiya, ijodkorlik, tasavvurning boyligi, intuitsiya, emotsional rivojlanganlik, mantiqiy fikrlash qobiliyati, texnik, texnologik, kreativ va reflektiv qobiliyatlar) ega emas.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash ko'nikmasing rivojlanganlik darajasini baholash **motivatsion, kognitiv, kreativ, intellektual, loyihaviy** mezonlar asosida aniqlandi.

Birinchi bosqich–ta'kidlovchi bosqichida qo'yilgan muammoning ilmiy-metodik asoslarini aniqlashga va tadqiq qilinayotgan vazifalarning xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarning texnologiyasi ishlab chiqilganligini tahlil qilishni o'z ichiga oluvchi izlanish tajribasini o'tkazishga, tadqiqotning yetakchi g'oyalari, maqsadi va vazifalarini asoslab berishga; xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash texnologiyasini aks ettiruvchi tajribasini o'rganishga qaratildi. Mazkur bosqichda, tajriba-sinov ishlari o'z mohiyatiga ko'ra, ta'limiy, tarbiyaviy hamda diagnostik (tashxis) harakter kasb etadi, ya'ni: xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash texnologiyasining jamiyat va shaxs hayotidagi o'рни, ahamiyati, umumta'lim o'qituvchilari milliy dasturlarni tayyorlashda ijodiy yondashishga doir nazariy bilimlar bilan qurollantirildi.

Shakllantiruvchi bosqichda pedagogik tajribani sinovdan o'tkazish uchun dastlabki tajriba-sinov ishlarida tanlab olingan shahar va tumanlardagi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashdagi bilim, ko'nikma va malaka darajalari aniqlandi.

Tadqiqot mavzusiga doir nazariy ma'lumotlarning holati, amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish mazmunlari o'rganib chiqildi, aniqlangan vazifalar asosida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

Xorijiy tajribalar asosida orqali umumta'lim maktabi o'qituvchilarining milliy dasturlarni loyihalash ijodiy ishlanmalar, loyihalarni tayyorlashga bo'lgan qiziqish,

ehtiyojni qaror toptirish, xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashning texnik, texnologik, didaktik va ijodiy imkoniyatlaridan xabardor bo'lish, dasturiy ishlanmalar, xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashga doir texnik operatsiyalarni mukammal bajarishga odatlantirish, o'z ustida izlanishlari uchun sharoit yaratib berish, xorijiy tajribalardan foydalanib, milliy dasturlarni loyihalashni to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun yo'naltirilgan nazariy bilimlari boyitildi. Bu bosqichda asosiy e'tibor umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish mazmuniga qaratildi. Xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash texnologiyasi rivojlantiruvchi bosqichlar bo'yicha o'quv-uslubiy materiallar tayyorlandi va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Yakunlovchi bosqichida tanlab olingan ta'lim muassasalarining tajriba va nazorat guruhlarida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba guruhlarida mashg'ulotlar ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar asosida muallif va ilmiy tadqiqot ishi bilan tanishtirilgan xorijiy tajribalar asosidagi milliy dastur loyihasi o'qituvchilari tomonidan o'tkazildi. Nazorat guruhlarida esa an'anaviy metodika asosida mashg'ulotlar olib borildi. Yakuniy natijalar umumlashtirilib, matematik-statistik tahlil qilindi va rasmiylashtirildi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash texnologiyasini ta'minlaydigan, ishlab chiqilgan metodikaning umumiy samaradorligi taqqoslash metodi bilan asoslandi.

3.1. Milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalashga doir tajriba-sinov ishlari samaradorligi

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash ko'nikmasing rivojlanganlik darajasini baholash motivatsion, kognitiv, kreativ, intellektual, loyihaviy mezonlari asosida aniqlandi:

Birinchi bosqich-ta'kidlovchi bosqichida qo'yilgan muammoning ilmiy-metodik asoslarini aniqlashga va tadqiq qilinayotgan vazifalarning xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarning texnologiyasi ishlab chiqilganligini tahlil

qilishni o'z ichiga oluvchi izlanish tajribasini o'tkazishga, tadqiqotning yetakchi g'oyalari, maqsadi va vazifalarini asoslab berishga; xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash texnologiyasini aks ettiruvchi tajribasini o'rganishga qaratildi. Mazkur bosqichda, tajriba-sinov ishlari o'z mohiyatiga ko'ra, ta'limiy, tarbiyaviy hamda diagnostik (tashxis) harakter kasb etadi, ya'ni: xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash texnologiyasining jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni, ahamiyati, umumta'lim o'qituvchilari milliy dasturlarni tayyorlashda ijodiy yondashishga doir nazariy bilimlar bilan qurollantirildi.

Shakllantiruvchi bosqichda pedagogik tajribani sinovdan o'tkazish uchun dastlabki tajriba-sinov ishlarida tanlab olingan shahar va tumanlardagi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashdagi bilim, ko'nikma va malaka darajalari aniqlandi.

Tadqiqot mavzusiga doir nazariy ma'lumotlarning holati, amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish mazmunlari o'rganib chiqildi, aniqlangan vazifalar asosida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

Xorijiy tajribalar asosida orqali umumta'lim maktabi o'qituvchilarining milliy dasturlarni loyihalash ijodiy ishlanmalar, loyihalarni tayyorlashga bo'lgan qiziqish, ehtiyojni qaror toptirish, xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashning texnik, texnologik, didaktik va ijodiy imkoniyatlaridan xabardor bo'lish, dasturiy ishlanmalar, xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashga doir texnik operatsiyalarni mukammal bajarishga odatlantirish, o'z ustida izlanishlari uchun sharoit yaratib berish, xorijiy tajribalardan foydalanib, milliy dasturlarni loyihalashni to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun yo'naltirilgan nazariy bilimlari boyitildi. Bu bosqichda asosiy e'tibor umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashning didaktik imkoniyatlari vositasida rivojlantirish mazmuniga qaratildi. Xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash texnologiyasi rivojlantiruvchi bosqichlar bo'yicha o'quv-uslubiy materiallar tayyorlandi va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Yakunlovchi bosqichida tanlab olingan ta'lim muassasalarining tajriba va nazorat guruhlarida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba guruhlarida mashg'ulotlar ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar asosida muallif va ilmiy tadqiqot ishi bilan tanishtirilgan xorijiy tajribalar asosidagi milliy dastur loyihasi o'qituvchilari tomonidan o'tkazildi. Nazorat guruhlarida esa an'anaviy metodika asosida mashg'ulotlar olib borildi. Yakuniy natijalar umumlashtirilib, matematik-statistik tahlil qilindi va rasmiylashtirildi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash texnologiyasini ta'minlaydigan, ishlab chiqilgan metodikaning umumiy samaradorligi taqqoslash metodi bilan asoslandi.

Tajriba-sinov ishlari uchun– ta'kidlovchi va ta'limiy tajriba-sinov yakunlariga oid ko'rsatkichlarning o'zaro taqqoslanishi asosida aniqlangan qiymatlar muhim sanaladi. Shu bois ta'kidlovchi va ta'limiy tajriba-sinov natijalarini o'zaro qiyoslash asosida tajribadan avvalgi va keyingi bosqich holatlarini ifodalovchi quyidagi jadval shakllantirildi (3.2.1-jadval). 3.2.1-rasmda esa olingan natijalarning grafik tavsifi keltirilgan.

Xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalash qay darajada muhimligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishimizda sinaluvchilar guruhida tafakkur, "dasturlarni loyihalash" tushunchalarining mohiyatini anglanganlik darajasini aniqlovchi savolnoma o'tkazildi.

3.2.1-jadval

Xorjiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy nazorat natijalari (son hisobida)

Tajriba-sinov ishi 1-bosqichi	Milliy ta'lim dasturlarini xorjiy tajribalar asosida loyihalanganligi			
	ta'lim dasturlarini xorjiy tajribalar asosida loyihalanmaganlik darajasi		ta'lim dasturlarini xorjiy tajribalar asosida loyihalanganlik darajasi	
	Soni	%	Soni	%
1	2	3	4	5
1-bosqich tajriba avvalida NG	80	91,9%	7	8,1%
1-bosqich tajriba avvalida TG	89	90,8%	9	9,2%

3.2.1-jadvalda keltirilgan yakuniy nazorat natijalarini umumlashtirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin (3.2.2-jadval).

3.2.2-jadval

Xorjiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy nazorat natijalari (son hisobida)

Tajriba-sinov ishi 2- bosqichi	Milliy ta'lim dasturlarini xorjiy tajribalar asosida loyihalanganligi			
	ta'lim dasturlarini xorjiy tajribalar asosida loyihalanmaganlik darajasi		ta'lim dasturlarini xorjiy tajribalar asosida loyihalanmaganlik darajasi	
	Soni	%	Soni	%
1	2	3	4	5
2-bosqich tajriba so'ngida NG	80	80,1%	25	28,8%
2-bosqich tajriba so'ngida TG	89	89,6%	68	69,4%

3.2.2-jadvalda keltirilgan yakuniy nazorat natijalarini umumlashtirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin (3.2.3-jadval).

3.2.3-jadval


Xorjiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy nazorat natijalari (son hisobida)

Tajriba-sinov ishi yakunida	Milliy ta'lim dasturlarini xorjiy tajribalar asosida loyihalanganligi			
	ta'lim dasturlarini xorjiy tajribalar asosida loyihalanmaganlik darajasi		ta'lim dasturlarini xorjiy tajribalar asosida loyihalanmaganlik darajasi	
	Soni	%	Soni	%
1	2	3	4	5
Tajriba ishi yakunida NG	80	63,2%	32	36,8%
Tajriba ishi yakunida TG	89	28,6%	70	71,4%

3.2.1-3.2.2. va 3.2.3-jadvallarda keltirilgan yakuniy nazorat natijalarini umumlashtirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin (3.2.1-rasm).

(3.2.1-rasm).

Xorjiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy nazorat natijalari diagrammasi.



Mazkur jadvallar va diagramma (3.2.1-rasm) da keltirilgan ma'lumotlar tajriba-sinov ishining 1, 2 va yakunlovchi bosqichda olingan natijalarga asoslangan. Xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan milliy dasturga binoan tajriba guruhidagi o'qituvchilarda milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqishga nisbatan qiziqish sezilarli darajada oshdi (9.2% dan 69,4 % gacha), bu ko'rsatkichni o'zgarishi uncha sezilarli bo'lmagan nazorat guruhiga solishtirsak (8.1% dan 28,8% gacha), natijalarning ancha jiddiy ekanligi ma'lum bo'ladi.

Tajriba-sinov ishining yakunida tajriba guruhida o milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalash 70 nafar o'qituvchi orasidan:

- 53 nafar o'qituvchida yuqori daraja mezonlari shakllangan;
- 14 nafar o'qituvchida o'rta daraja mezonlari shakllangan bo'lib, mazkur o'qituvchilarda milliy dastur yaratishga nisbatan barqaror motivatsiya shakllantirildi;
- 3 nafar o'qituvchida quyi daraja mezonlari shakllangan;
- shuningdek, tajriba guruhining 28 nafar o'qituvchida milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalashga bo'lgan qiziqish shakllanganligi qoniqarsiz darajada ekanligi aniqlandi.

Shunday qilib, tadqiqot yakunida tajriba guruhining 70 nafar o'qituvchisida, ya'ni 71.4% ida milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalash ko'nikmasi shakllanganligi ma'lum bo'ldi.

Nazorat guruhida esa natijalar aksincha. Tadqiqot yakunida nazorat guruhida milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalash ko'nikmasi shakllangan 32 nafar o'qituvchidan:

- 13 nafar o'qituvchida yuqori daraja mezonlari shakllangan;
- 14 nafar o'qituvchida o'rta daraja mezonlari shakllangan bo'lsa;
- 5 nafar o'qituvchida quyi daraja mezonlari shakllangan;
- shuningdek, 55 nafar o'qituvchida milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalash ko'nikmasi shakllanganligi qoniqarsiz darajada ekanligi aniqlandi.

Tajriba guruhining 28 nafar (28,6%i) o'qituvchisida va nazorat guruhining 55 nafar (63,2%) o'qituvchisida natijalarning qoniqarsiz ekanligi quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

-o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan motivatsiyasining yuqori emasligi;

-ta'lim muassasasi o'quv dasturlarida belgilangan fanlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar;

-o'qituvchida mustaqil ta'lim olish, mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchanlik ko'nikmalarining rivojlanmaganligi;

- umumta'lim maktabi o'qituvchisida milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalash ko'nikmasi shakllanmagan.

Bizga ma'lumki, o'qitish jarayonidagi milliy dasturlar xorijiy tajribalar asosida loyihalash samara beradi. O'qitishning samaradorligi esa milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalash ko'nikmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Uchunchi bob bo'yicha xulosa

O'qituvchilarni xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalash omillarini baholash uchun mezonlar ishlab chiqildi. Shakllantiruvchi tajriba-sinov mashg'ulotlari o'tkazildi, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq etildi. Tajriba-sinov ishining yakunlovchi bosqichi amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatli kechishi quyidagi ob'ektiv va sub'ektiv omillarning mavjudligi hisobiga ta'minlandi.

Tajriba guruhida magistrant tomonidan tavsiya etilayotgan hamda xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalashni ta'minlashga yordam beruvchi texnologiya asosida amaliy faoliyat yo'lga qo'yilgan bo'lsa, nazorat guruhlarida esa an'anaviy tartibda o'quv-tarbiya ishlari olib borildi.

Dissertatsiyada, xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni (umumiy o'rta ta'lim muassasalarida) loyihalash texnologiyasini yaratishga qaratilgan pedagogik faoliyat quyidagi metod va usullar asosida tashkil qilinishi ko'rsatilgan: anketa savollari, kuzatish, suhbatlar, nazorat (test), pedagogik tajriba. Pedagogikada

mavjud mezonlarni takomillashtirish asosida o'qituvchilarning milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida loyihalash ko'nikmasini egallaganliklarining yuqori, o'rta va past darajasi ishlab chiqildi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash ko'nikmasining rivojlanganlik darajasini baholash motivatsion, kognitiv, kreativ, intellektual, loyihaviy mezonlari asosida aniqlandi.

Tadqiqot mavzusiga doir nazariy ma'lumotlarning holati, amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish mazmunlari o'rganib chiqildi, aniqlangan vazifalar asosida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

Xorijiy tajribalar asosida milliy ta'lim dasturlarini loyihalash qay darajada muhimligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishimizda sinaluvchilar guruhida tafakkur, "dasturlarni loyihalash" tushunchalarining mohiyatini anglanganlik darajasini aniqlovchi savolnoma o'tkazildi. Xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan milliy dasturga binoan tajriba guruhidagi o'qituvchilarda milliy dasturlarni xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqishga nisbatan qiziqish sezilarli darajada oshdi (9.2% dan 69,4% gacha), bu ko'rsatkichni o'zgarishi uncha sezilarli bo'lmagan nazorat guruhiga solishtirsak (8.1% dan 28,8% gacha), natijalarning ancha jiddiy ekanligi

UMUMIY XULOSALAR

“Xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni (umumiy o’rta ta’lim muassasalarida) loyihalash texnologiyasi” mavzusidagi dissertatsiya bo’yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash faoliyati o’qituvchida ijodkorlik xislatlarini shakllantirishga, aniq maqsad sari reja tuzishga, o’qituvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashga, ta’lim berishda amaliyot va nazariya uyg’unligiga erishishga, mustaqil, o’z ustida ishlash orqali mavjud bilimlarni mustahkamlashga, yangi bilimlarni o’rganishga ishtiyoqini shakllantirishga ko’maklashadi.

2. Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash o’qituvchilarda loyihalash faoliyati ko’nikmalarini shakllantirish ularda izchil, kreativ, mantiqiy va algoritmik fikrlash malakasini rivojlantirish asosida milliy dasturlarimizning zamonaviy yondashuvlar asosida boyishini ta’minlaydi.

3. Xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash – o’qituvchilarning loyiha faoliyatini shakllantirishga qaratilgan, shaxsiy tashabbusi va kreativ faoliyatini oshirishga yo’naltirilgan hamda hamkorlikda olib boriladigan pedagogik tizimdir. Ushbu jarayonda o’qituvchilarning o’sishi ya’ni olib borayotgan faoliyati natijasida qobiliyatlari shakllanadi, ichki imkoniyatlari ochiladi.

4. Xorijiy tajribalar asosida milliy dasturlarni loyihalash o’quv muassasalarining integratsiyalashuvi va maktab o’quvchilarining loyihaviy faoliyatini tashkil etishga klasterli yondashuv asosida hamda loyihaviy faoliyatning maqsadi, mazmuni, texnologiyasi, natijalari, variativ o’qitish usullari va ijtimoiy sheriklik kabi muhim omillar o’rtasidagi qarama-qarshiliklarni yechishga asoslangan.

Bugungi kunda zamonaviy maktablarning xalqaro standartlarga raqobatbardoshligini oshirish maqsadida PISA, PIRLS, TIMMS kabi yuqori darajada e’tirof etilayotgan baholash dasturlari talablari asosida o’quv jarayonini tashkil etish zarurati tug’ilmoqda. Bu borada mamlakatimizda milliy o’qitish

tizimini isloh etish maqsadida umumta'lim fanlaridan Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlari, yangi avlod darsliklarini zamonaviy talablar asosida yaratish ishlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Tadqiqotimiz natijasida, barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi o'quvchilarning loyihalash faoliyatining shakllanganlik ko'rsatkichlarining samaradorligi 12,3 % yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarali ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

1.2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 28.01.2022 -yildagi PF-60 son farmoni va uning 1-ilovasi // Elektron manba.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son Farmoni.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi Toshkent sh., 2020-yil 28-yanvar.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //www.lex.uz

4.Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: - "O'zbekiston" - 2016. 59 b.

5.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori. Toshkent sh., 2017-yil 6-aprel.

6.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risi"gi 515-sonli qarori. Toshkent sh., 2017-yil 18-iyul.

7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712 sonli farmoni. Toshkent sh., 2019-yil 29-aprel.

8.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori. Toshkent sh., 2018-yil 8-dekabr.

9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134sonli farmoni. Toshkent sh., 2022-yil 11-may.

II. Asosiy adabiyotlar.

10. Axmedjanov M.M., To‘xtayeva Z.SH. Didaktik vositalar majmuasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2008. –100-b.
11. Apish, F. N. Ta'lim motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik va didaktik asoslari / F. N. Apish. M.: MGOU, 2021. - 180 b.
12. Aslonova M. A. Ta'lim jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish. Monografiya – Toshkent – 2009. 166b.
13. Akbar T. Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 160-167.
14. Axmadaliyev Murodjon Ulug‘bek o‘g‘lining “Ta’lim sifatini oshirishda xalqaro baholash dasturlarni hamda raqamli texnologiyalarni o‘rni” nomli maqolasi. И73 «Интернаука»: научный журнал–№ 2(225). Часть.3. Москва, Изд. «Интернаука», 2022. – 96 с. 76-77.
15. Abdurahim Nosirovning “O‘quvchilar bilimi va kompetensiyasi xalqaro mezonlar asosida baholanadi” nomli maqolasi. 4-6 b.
16. Babanskiy, Yu.K. Zamonaviy umumta’lim maktabida o‘qitish metodikasi /Yu.K. Babanskiy. M.: Ma’rifat, 1985. - 208 b.
17. Банский, Ю.К. Замонавий умумтаълим мактабида ўқитиш методикаси /Ю.К. Бабанский. М.: Маърифат, 1985. - 208 б.
18. Doniyarov Mavlonbek Arabovich “Xalqaro baholash tizimida boshlang‘ich ta’limning o‘rni” nomli maqolasi. 6 b.
19. Ibadullayev Q.M. Ta’lim jarayonida zamonaviy talablar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. Monografiya “Zebo print”, Tashkent 2023. 98-b
20. Iragimov R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishniig didaktik asoslari. Monografiya – Toshkent – 2005. 144b.
21. Ibragimov G. N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Dissertatsiya – Toshkent – 2017. 154 b.

22.Ina.V.S. Mullis va Michael O. Martin. Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) "TIMSS 2019 baholash qamrov doirasi". Toshkent 2021. 68 b.

23.Ibadullayev K.M. Ta'lim mazmuniga qo'yiladigan zamonaviy talablar (PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida). Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. №12, 2021, 194-199 b.

24.L.M., Ketterlin-Geller, L.R., & Sitabkhan, Y. (2016). Using an assessment of early mathematical knowledge and skills to inform policy and practice: Examples from the early grade mathematics assessment. International Journal of Education in Mathematics, Science and Technology, 4(3), 163-173.

25.Lynd, Mark. (2010). Assessment report and proposal for an education strategy. Prepared for U.S. Agency for International Development/Rwanda. Kigali, Rwanda. 65 b.

26.Muslimov N.A. Elektron darslik yaratish metodik tamoyillari va texnologiyalari. / Infocom.uz, 2004. –152 b.

27.Muslimov N.A. Elektron darslik yaratish metodik tamoyillari va texnologiyalari./ Infocom.uz, 2004. –152 b.

28.M.E.Jumayev, Z.G'.Tadjiyeva — Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent. Fan va texnologiya 2005-yil 114-b.

29.Michael O. Martin, Matthias von Davier, Ina V.S. Mullis. Methods and Procedures: TIMSS 2019 Technical Report. 1172 b.

30. Milliy o'quv dasturi loyihalari, loyiha bo'yicha taqdimotlar.—// Elektron manba. Respublika ta'lim markazi rasmiy telegram kanali: https://t.me/edurtm_uz

31.N.Sadiqov – "PISA, TIMSS so'zlari nimani anglatadi?" nomli maqolasi. 23-oktabr 2018-yil. 6 b.

32.Ro'ziqulova N. Sh. Axborot-kommunikasiya texnologiyalari vositasida o'quv-biluv motivlarini shakllantirish. Qo'llanma – Toshkent – 2013. 188 b

33.Ta'limga qiziqishni shakllantirishning dolzarb masalalari/ Yed. G.I. Shukina. M.: Ma'rifat, 2019. - 176 b.

Internet saytlari

- www.ziyonet.uz
- www.google.ru
- www.dissnatlib.uz